

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida
UDK:327.7*

KUSHANOVA DILFUZA UBAYDULLAYEVNA

**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI VA XALQARO
XAVFSIZLIK**

5A220203-Umumiy tarix mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini
olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Dots.Hoshimova M.M.

Samarqand - 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3- 11
I BOB. SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING SHAKLLANISH JARAYONI TARIXI	
I.1. «Shanxay beshligi»dan Shanxay Hamkorlik Tashkilotigacha.....	12-20
I.2. ShHTning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Faoliyat mexanizmi va tashkiliy tuzilmasi.....	21-30
I.3. ShHT XXI asrning yetakchi mintaqaviy tuzilmasi sifatida xalqaro miqyosda tan olinishi (2001-2011 yy.)..	31-50
II BOB. MINTAQADA XAVFSIZLIK UCHUN KURASHDA VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA ShHTNING ISHTIROKI	
II.1. ShHTda terrorizmga qarshi kurash markazi – MATT faoliyati.....	51-63
II.2. Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashda ShHTning ishtiroki.....	64-71
II.3. Markaziy Osiyodagi asosiy xavfsizlik muammolari.....	72-77
XULOSA.....	78-82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83-86
ILOVA.....	87-90

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqaro munosabatlar tizimida teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etish va o'zaro teng huquqli aloqalarni amalga oshirish yer yuzidagi har bir suveren davlatlar tashqi siyosatining eng muhim tamoyillaridan biridir. Dunyodagi biror-bir davlat yo'q-ki xalqaro aloqalarni yo'lga qo'ymasdan rivojlana olmaydi. Dunyoning bugungi siyosiy qiyofasi bir necha o'n yillar avvalgi holatidan butunlay farq qilib bormoqda. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin 1990-yillarga qadar dunyo amalda ikki qutbli siyosiy tizimga bo'lingan va barcha davlatlarning siyosiy qarashlari ana shu holatdan kelib chiqib amalga oshirilardi. Biroq sobiq ittifoqning parchalanib ketishi natijasida ikki qutblilik rasman tugab amalda AQSh siyosatiga asoslanuvchi plyuralistik – bir qutbli tartiboti (umumglobal birligi tartiboti) vujudga keldi, degan qarashlar ommaviy axborot vositalarida, siyosatshunoslar talqinida ham ko'p bora tilga olinib boshlandi.

Ammo keyingi voqealar rivoji XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyoda ko'p qutblilikka asoslangan yangi xalqaro munosabatlar tizimi shakllanganligini ko'rsatdi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya kabi qudratli ishlab chiqarish quvvatiga ega davlatlar yangi raqobatchilarga duch kela boshladi. Xususan, Amerika qit'asida - Kanada, Braziliya, Meksika va Argentina kabi davlatlar, Afrika qit'asida - Janubiy Afrika Respublikasi, Sharqda - Xitoy, Hindiston, Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Indoneziya va Avstraliya kabi davlatlar ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan butunlay mustaqil harakat qila boshladi. Sobiq Sovet ittifoqining vorisi sifatida Rossiya ulkan tabiiy zahiralari, harbiy potentsiali, qudratli ishlab chiqarishiga tayanib, o'zining mavqeini tiklab, uni yanada mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda dunyo ko'p qutbli dunyo bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlanib ketgan AQSh va sobiq SSSR o'rtasidagi siyosiy, g'oyaviy va harbiy qarama-qarshilik sharoitida bir qancha agressiv va faqatgina harbiy maqsadlarni ko'zlagan xalqaro tashkilotlar vujudga keldi. Xususan, NATO, Varshava shartnomasi, SENTO, SEATO va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. XX asrning 90-yillarida SSSRning parchalanib ketishi va

undan bir muncha avvalroq qator sotsialistik lager davlatlarining o'z yo'llarini o'zgartirishi oqibatida sobiq sotsialistik tuzumidagi har bir mamlakat iqtisodiy jihatdan o'zlariga mos bo'lgan rivojlanish yo'lini tanlab oldi. Natijada sovet davlati tomonidan iqtisodiyotda o'rnatilgan «biqiq» siyosatdan qutilish uchun sobiq sotsialistik davlatlar mavjud sharoitda iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va yanada rivojlantirish maqsadida yangi xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni o'rnatish boshlandi.

O'zbekiston ham mustaqillikka erishgach, suveren davlat sifatida o'z konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyaning tamoyillariga tayanib O'zbekiston xalqaro munosabatlar tizimining to'la huquqli subyektiga aylandi. Ana shu tamoyillarga asosan O'zbekiston birinchi navbatda «davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».¹ Buni XX asr oxiri va yangi asr boshida xalqaro munosabatlar tizimida nufuzli tashkilotga aylana olgan ShHTga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishida kuzatishimiz mumkin. Bu borada Prezident I.A.Karimov quyidagicha munosabat bildiradi: «2001-yilda tuzilgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tarixan qisqa vaqtda zamonaviy geosiyosatning nufuzli xalqaro tuzilmasiga aylandi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.»²

Tashkilot tarixiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, ShHT dastlab «Shanxay beshligi» sifatida nom oldi va unga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi natijasida uning geografiyasi yanada kengaydi. O'zbekiston ShHTga a'zo bo'lib kirar ekan, bunda asosiy maqsad sifatida davlatimiz rahbari o'z nuqtai nazarini quyidagicha izohlab o'tadi. «Biz Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, birinchi galda xalqaro terror, diniy ekstremizm, bosqinchi ayirmachilik va narkobiznes kabi mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xavf-xatarga qarshi turishda ochiq, o'zaro foydali sheriklik va ko'p tomonlama hamkorlikka qaratilgan hamkorlik mexanizmi deb bilamiz...

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., «Ўзбекистон», 2008. 6-бет.

² Каримов И.А. Жаҳон инкирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Том 18. Т., 2010. 234-бет.

Shanxay birlashmasi doirasida davlatlararo hamkorlik haqida soʻz ketar ekan, mazkur birlashma faoliyatining asosiy siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnikaviy jihatdan qudratli, ayni paytda BMT Xavfsizlik kengashining doimiy aʼzolari boʻlgan 2 buyuk davlat – Rossiya va Xitoy tashkil etayotgani va kelgusida ham shunday boʻlib qolishini taʼminlash uchun barcha asos bor, deb hisoblaymiz....

Oʻzbekiston, taʼsischi va teng huquqli ishtirokchi sifatida, ongli ravishda Shanxay tashkiloti bilan hamkorlikka kirishmoqda.»³

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mavzusi bugungi kunda nafaqat xalqaro munosabatlar tarixi uchun, balki unga aʼzo davlatlarning tarix fani uchun yangi va dolzarb mavzulardan biri boʻlib qolmoqda. Sababi, bugungi kunda jahonda roʻy berayotgan global darajadagi muammolar – xalqaro keskinlik, terrorizm, norkobiznes, ayirmachilik, ekologiyaning buzulishi bir tomondan, ikkinchi tomondan iqtisodiy integratsiyalashuv mintaqadagi birgina davlatning oʻzi bilan hal etilmaydi. Buni hal etish uchun xalqaro hamkorlikda ShHT singari tashkilotlarning faoliyatiga ehtiyoj mavjud.

«ShHTning ushbu barcha murakkab vazifalarni amalga oshirishdagi oʻrni haqida soʻz yuritadigan boʻlsak, uni oʻz ishtirokchilarining holati va imkoniyatlariga mos, mumkin qadar ochiq, omilkor va samarali tashkilotga aylantirish nihoyatda muhimdir. Saʼy-harakatlarni sovurmay, aksincha hamkorlikning «Shanxay jarayoni» qatnashchilari manfaatlariga bir xilda mos boʻlgan asosiy masalalarga safarbar etish zarur.»⁴

ShHT xalqaro siyosiy birlashma sifatida nafaqat mintaqaviy muammo bilan, balki boshqa xalqaro mintaqaviy muammolar bilan ham shugʻullanadi. Dunyodagi doimiy oʻzgarishlar tashkilotni yanada faol ishlashga undaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimov taʼbiri bilan aytganda «Biz jadal rivojlanayotgan va oʻzgarayotgan dunyoda yashayotganimiz sir emas. Xalqaro barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar maydonga chiqmoqda, nizolar va xavflarning xususiyati tubdan oʻzgarmoqda...

³ Каримов И.А. Ватан равнаки учун хар биримиз масъулмиз. Том 9. Т., 2001. 375-376 бетлар.

⁴ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Том 10. Т., 2002. 391-бет.

Dunyo xalqaro terrorchilik, radikal ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikning taboro kengayib borayotgan ko'lamlari, yadro quroli va ommaviy qirg'in quroli tarqalishi xavfiga duch keldi.

Ko'z o'ngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya qiyofasida fundamental o'zgarishlar yasaydigan chuqur jarayonlar ro'y bermoqda...

Shu bois ShHT doirasida ham integratsiya, umummintaqaviy bozor yaratishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqish borasida birgalikda ishlashimiz juda muhim ahamiyatga ega. Aminmanki, bu masalalarning hal etilishi ShHTga a'zo barcha davlatlarning asosiy manfaatlariga bir xilda mos keladi.»⁵

ShHT xalqaro tashkilot sifatida o'zining asosiy yo'nalishi xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblaydi. Harbiy bloklar tuzish, boshqa davlatlar xavfsizligiga rahna solish tashkilotning maqsadi emas. Xususan, Islom Karimov ShHTning 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan sammitida quyidagicha fikr bildiradi.

«Biz shunga qat'iy aminmizki, ShHTning binosini ko'tarib turadigan asosiy ustunlar, eng muhim yo'nalishlar – xavfsizlik va iqtisodiyot bo'lishi zarur. Ana shu ikki ustun yoki ta'bir joiz bo'lsa, aravaning ikki g'ildiragiga tayangan holdagina ShHT faoliyatining samaradorligi va uning xalqaro nufuzini, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyodagi vaziyatga mos tarzda harakat qilishini ta'minlash mumkin.»⁶

Shunday ekan «Bugungi kunda ShHT xalqaro hamkorlikning qudratli institutiga, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning, xalqaro terrorchilik, separatizm va ekstremizm, narkotik moddalar ishlab chiqarish va tashish kabi zaminning eng qaltis tahlika va tahdidlariga qarshi kurashishning kuchli omiliga aylanmoqda.»⁷

⁵ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Том 11. Т., 2003. 275-бет.

⁶ Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Том 12. Т., 2004. 342-бет.

⁷ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Том 13. Т., 2005. 440-бет.

Bugungi kunda ShHTga a'zo mamlakatlarda aholi soni 1,5 mlrd. kishidan ortiq bo'lib, geografik jihatdan Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hisobiga juda ulkan hududni o'z ichiga oladi.

Rasman shakllanishiga o'n yildan ortiq vaqt o'tgan va bugungi kunda rivojlanish yo'liga kirib olgan ShHT shu muddat ichida o'z tamoyillaridan kelib chiqib, mintaqa va xalqaro darajadagi ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Birinchi navbatda tashkilotning tarkibiy tuzilmasi takomillashdi. Kechagina ikki davlatning chegaralar masalasidagi nizolarni hal etish maqsadida tamal toshini qo'ygan shartnoma Shanxay Hamkorlik Tashkiloti darajasigacha yetib kelgan yo'lni bosib o'tdi. Qolaversa ShHT asosiy maqsadlaridan biri mintaqada va jahonda barqarorlikni, tinchlikni ta'minlash uchun kurashdan iborat. Faoliyati davomida bu sohada ham ShHT doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Va nihoyat uchinchidan O'zbekiston ham mazkur tashkilotning teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Shu ma'noda bugungi kunda ShHTning bosib o'tgan yo'lini tahlil qilish, erishilgan natijalarga baho berish, faoliyat mexanizmini xalqaro xavfsizlik uchun kurashda qanday chora tadbirlarni amalga oshirganligini ilmiy jihatdan o'rganish, ShHTda O'zbekistonning o'rni va roliga munosib baho berish tarix fani oldida turgan eng ustuvor masalalardan biridir.

Shunday ekan O'zbekiston tarix fani uchun ShHTni o'rganish yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi, undan tashqari tashkilotning tarixi ham yaqin o'tmish sarhadlaridan bo'y cho'zgan. Ammo unga a'zo davlatlarda yashovchi xalqlarning tarixiy aloqalari ming yilliklarga borib taqaladi, xitoy, qozoq, qirg'iz, tojik, o'zbek, rus va qoraqalpoq xalqlari bir-biri bilan qardoshlik aloqalari orqali mustahkam aloqada bo'lib kelgan va bugungi kunda shu jarayon davom etmoqda.

Magistrlik dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Shanxay Hamkorlik Tashkilotining bugungi kungacha bosib o'tgan yo'lini ilmiy jihatdan tahlil qilish, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka erishish yo'lida ShHTning ahamiyati va rolini ko'rsatib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- Xalqaro maydonda ShHTi nufuzli va barqaror mintaqaviy tashkilotga aylanganlik asoslarini tahlil qilib berish;
- ShHTning faoliyat mexanizmini, maqsadini, vazifalarini, tamoyillarini va tashkiliy tuzilmasini tadqiq qilish;
- ShHT doirasidagi asosiy hamkorlik yo'nalishlarini o'rganish;
- Xavfsizlik va barqarorlikka bo'lgan tahdidlar va urinishlarning oldini olishda mazkur tashkilot tomonidan qilingan amaliy ishlarni tahlil qilish;
- ShHTning bugungi kundagi o'rnini va roliga baho berish

Muammoning ishlab chiqilish darajasi. ShHTning o'nlab sammitlari va yig'ilishlari bo'lib o'tgan, davlatlararo ko'plab hujjatlar qabul qilingan bo'lsa, ular haqida birgina mamlakatimiz matbuotida ko'plab maqolalar, ocherklar va boshqalar yozilgan. Qo'shimcha ravishda tashkilotga a'zo mamlakatlarning boshqalarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Har bir qiziquvchi kishi shu kabi ma'lumotlarni axborot olish imkonini juda katta bo'lgan bugungi kunda bemalol topish va o'rganib chiqish mumkin. Garchi ma'lumotlar shu qadar katta bo'lsa-da, ammo mamlakatimiz tarix fani uchun ham yirik hajmdagi tadqiqot ishlari juda kam olib borilgan deyishimiz mumkin. Bir necha nomzodlik ishlari amalga oshirilgan, ularda ham tashkilotning ayrim jihatlari qamrab olingan xolos.⁸ Shu o'rinda yana bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. ShHT mavzusi borasida amalga oshirilgan har qanday ilmiy ish bir necha yilda eskirib qolishi mumkin. Sababi, ShHT hali yosh tashkilot va balki shu sababli uning faoliyati juda faol ravishda olib boriladi, kelajakda esa uning safi yangi a'zolar bilan to'ldirilishi mumkin. Bugungi kunda va shu kunga qadar ham amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning asosiy qismi ShHT va unda O'zbekistonning ishtiroki masalasini o'rganishga qaratiladi. Tashkilotning O'zbekistonda amalga oshirilgan va oshirilayotgan o'zgarishlardagi o'rnini hamda roli masalasiga, undan tashqari tashkilotda O'zbekistonning mavqeyi, a'zo mamlakatlar ikki yoqlama va ko'p

⁸ Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007. 4-бет.

tomonlarni olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi hamkorlikka O'zbekiston nuqtai-nazaridan e'tibor beriladi.

Lekin ushbu ishda asosiy e'tibor ShHTning vujudga kelishi, uning tarixiy ildizlaridan boshlab shakllanish jarayonini qisqacha o'rganib, asosiy e'tiborni ShHTning mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishdagi o'rni, ularga munosabati, davlatlar o'rtasidagi siyosiy hamda iqtisodiy aloqalarga ham to'xtalib o'tgani holda tashkilotning unga a'zo bo'lmagan yoki kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotgan davlatlarning nuqtai-nazari sammitlardagi qatnashuvchi davlatlar haqida ma'lumot beriladi. Undan tashqari boshqa tashkilotlar bilan munosabati, Yevropaning qudratli mamlakatlari yoki Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va shu kabi qudratli, yirik davlatlarning munosabati va tashkilot bilan aloqalari masalasiga oid ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi.

Hozirgi davrda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar natijasida ma'lumotlarni ko'rib chiqish, ularni qayta ishlash va barchasiga munosabat bildirishning imkoni yo'q. Shunday ekan ShHT mavzusiga oid barcha ma'lumotlarni o'rganish va foydalanish umuman imkoni bo'lmaydigan holatdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati hamda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik va integratsiya muammolarini o'rganish hamda ularni tahlil qilish bilan A.X.Xodjayev⁹, R.M.Alimov¹⁰, G.I.Karimova¹¹, O.S.Mannonova¹², U.A.Xasanov¹³, V.V.Parmonov¹⁴, Sharipov M.Sh.¹⁵ va Muxamadjanov A.N.¹⁶ kabi o'zbekistonlik yetakchi siyosatshunos olimlar shug'ullanmoqdalar.

⁹ Ходжаев А.Х. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т., «Фан», 2004.

¹⁰ Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т., «Шарк», 2005. 464 с.

¹¹ Каримова Г.И. Политико-экономический реформы в Узбекистане: реалии и перспективы. Т., «Узбекистан», 1995.

¹² Маннонова О.С. Политологическое изучение проблем регионально развития безопасности и интеграции в Центральной Азии в зарубежной русскоязычной литературе// Диссертация на соиск.науч.степени канд.полит.наук. Ташкент, 2001.

¹³ Хасанов У.А. Региональная безопасность и национальные интересы (Центрально-азиатский регион). М., 2004.

¹⁴ Парманов В.В. Геостратегия США в Центральной Азии: Автореф. дис... канд.полит.наук. Т., 2002.

¹⁵ Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007.

¹⁶ Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010.

R.Alimov Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikka tahdid va chaqiriqlarni tahlil qilishga hamda mintaqada uzoq muddatli barqarorlik va rivojlanish uchun sharoit yaratuvchi «xavfsizlikni yangi muhiti»ni shakllantirish istiqbollariga e'tiborni qaratadi.

A.Xodjayeov asarlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi Xitoy ta'sirining tarixiy asoslari va hozirgi holati, ularning o'zgarish tendensiyalari, mintaqaning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga bo'lgan ta'siri chuqur tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi olimlar ham, jumladan, Qozog'iston va qirg'izistonlik V.Kasimbekov, V.Xlyunin, U.Kasenov, T.Akimov, S.Akimbekov, R.Burnashev, M.Laumulin, K.Siroyejkin¹⁷lar mintaqadagi xavfsizlik hamda integratsiya muammolariga e'tiborni qaratmoqdalar. Qozog'istonlik V.Xlyunin o'z asarlarida ko'proq e'tiborni aynan chegara, transchegaraviy daryolar muammolarini yechimiga, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini o'rganishga qaratganligi bilan diqqatga sazovor.

G.I.Morozov, E.A.Nozdnyakov, K.S.Gadjiyev, A.D.Voskresenskiy, N.A.Lomagin¹⁸ kabi xavfsizlik va xalqaro munosabatlar sohasidagi Rossiya ekspertlari hamda siyosatshunoslari izlanishlarida mintaqamizdagi vaziyat alohida o'rin egallaydi.

Milliy mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalariga oid Z.Bjezinskiy, G.Glizon, F.Starr, F.Xill, R.Alisson, Sh.Akiner, M.Olkoot, K.Kollinz, G.Bertch¹⁹ va boshqa ko'plab g'arb siyosatshunoslarining asarlari ham e'tiborga molik.

Bundan tashqari ko'plab tadqiqot ishini yoritishda internet saytlaridan ham unumli foydalanildi: www.SCO.ru, www.izvestia.ru, www.centran.ru, www.english.gov.cn, www.impravo.ru, www.europa.eu.int.

¹⁷ Хлюнин В. В. Геополитический треугольник: Казахстан-Китай-Россия. Прошлое и настоящее пограничной проблемы. М., 1999.

¹⁸ Воскресенский А.Д. Китай и Россия: теория и история межгосударственных отношений. – М., 2004; Шанхайская организация сотрудничества и российско-китайское взаимодействие в Центральной Азии. - М., 2006.

¹⁹ Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска. Перевод О.Ю.Уральской. М., Международные отношения. 1998. 254 с.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- ShHTning tashkil topishi, faoliyat mexanizmi va rivojlanish bosqichlari O'zbekiston hamda xorijiy davlatlarda nashrdan chiqqan ilmiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar, Internet saytlari ma'lumotlari tizimli asosda tahlil qilinishga va umumlashtirilishga harakat qilindi.

- Mazkur tashkilotning rivojlanish bosqichlari tadrijiy usulda o'rganildi.

- ShHT doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatishga va bu yo'nalishda unga a'zo bo'lgan davlatlarning amalga oshirgan ishlarini tahlil qilishga harakat qilindi.

- Mintaqada asosiy xalqaro xavfsizlik darajasiga ko'tarilgan muammolar va ularga yechim topishda ShHTning ishtiroki masalasini asoslashga harakat qilindi.

Tadqiqotning predmeti va obykti. Tadqiqotning obykti ShHT va uning mintaqadagi xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va ishtirokini ko'rsatishdan iboratdir. Tadqiqotning predmeti ShHT misolida mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi yo'llarini yaratish va tahlil qilishdan iborat.

Ilmiy-amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishida alohida xalqaro huquq mexanizmi sifatida shakllanib ulgurgan ShHTning bosib o'tgan yo'li tahlil qilingan hamda mazkur tashkilotni takomillashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar asosida takliflar kiritilgan, qolaversa bugungi kun xalqaro xavfsizlik muammolarini hal etishning eng samarali usullari ShHT doirasida nechog'lik amalga oshirilayotganligi tahlil qilingan.

Dissertatsiyada jamlangan ilmiy va nazariy asoslangan materiallardan zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi tarixini o'rganishda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy jihatlariga baho berishda mavjud geosiyosiy vaziyatlarni tahlil qilishda talabalar uchun o'quv material, maxsus kurs, mustaqil va kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishlari sifatida foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertasiyasi bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlarning samarasi sifatida 3 ta maqola, shu jumladan, 1 ta ilmiy jurnalda maqola, 2 ta konferensiyalarda tezislar e'lon qilingan.

Mazkur tadqiqot ishi kirish, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan tashkil topgan.

I BOB. SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING SHAKLLANISH JARAYONI TARIXI

1.1. «Shanxay beshligi»dan Shanxay Hamkorlik Tashkilotigacha

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi aloqalarning tarixi uzoq ildizlarga borib taqaladi. Agarda o'tmishda Xitoy va O'rta Osiyo aloqalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir necha ming yillik aloqalar har qanday sharoitda ham ko'plab to'siqlarga qaramasdan davr sinovlariga bardosh berib, rivojlanishda davom etavergan. Buyuk ipak yo'li doirasida savdo va madaniy aloqalar natijasida xalqlarimiz bir-biriga har jihatdan yaqinlashib borgan. Fikrlarimizning isboti uchun misollar hatto keragidan ham ortiqroq deyishimiz mumkin.

ShHT ham boshqa tashkilotlar kabi o'zining tarixi va shakllanish jarayonlariga ega. «Shanxay beshligi» sifatida dastlab o'z faoliyatini boshlagan tashkilot a'ziligiga O'zbekistonning qo'shilishi bilan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti nomini oldi. Aslida ShHTning tarixiy ildizlari XX asrning 60-yillariga borib taqaladi. Chunki, sobiq ittifoq XRX o'rtasidagi hududiy muammolarni hal etish o'sha davrdayoq pishib yetilgandiki, unga barham berish esa ma'lum bir muddatni taqozo etardi.²⁰ «Shanxay beshligi» Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Xitoy Xalq Respublikalari o'rtasidagi chegara hududlarida qurolli kuchlar sonini qisqartirish va bir-biriga ishonish natijasida kelishuvga erishish jarayonida shakllandi.

Umuman olganda, «Shanxay beshligi» va Shanxay Hamkorlik Tashkilotining shakllanish tarixini shartli ravishda bir necha bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich – 1989-yil noyabr oyidan 1991-yil dekabr oyiga qadar sobiq Sovet Ittifoqi parchalanib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.²¹ «Sovuq urush» sharoitida sobiq sovet ittifoqining Xitoy bilan munosabatlari bir xil rivojlanmaydi. Ulardagi siyosiy tizim yagona kommunistik qarashlarga asoslangan

²⁰ Бекмуротов И. Шанхай Хамкорлик Ташкилоти // Жамият ва бошқарув. №2, 2004. 64-бет.

²¹ История развития ШОС//<http://www.SCO.ru>

bo'lsada, ammo munosabatlar doimo iliq va ittifoqchilik ko'rinishida bo'lib kelmadi. Sovet-Xitoy munosabatlari goh iliq, goh siyosiy tarang holatda bo'lib keladi. Qolaversa sovuq urush davridan yoki to XX asrning 90-yillariga qadar Xitoy ikkinchi darajali davlat sifatida baholanib kelindi. Garchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti «Xavfsizlik Kengashi» doimiy a'zosi bo'lib, hududiy va aholi soni jihatidan yirik davlatlar sirasiga kirsa-da, bari-bir Xitoy dunyo siyosati va iqtisodida u qadar kuchli ta'sirga ega emasdi. Lekin o'tgan asrning 80-yillarida boshlanib ketgan iqtisodiy islohotlar natijasida Xitoy juda tez taraqqiy eta boshladi. Natijada bir necha yil ichida, ayniqsa, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Xitoy dunyodagi eng yirik mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatlardan biriga aylanib bordi. Bugunga kelib, u dunyoda mahsulot ishlab chiqarishining umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda AQShdan keyingi o'ringa ko'tarildi. Hatto ba'zi sohalarida birinchilikni egallashga erishdi. Sovuq urush natijasida sobiq SSSR bosimi ostida belgilangan ittifoqning, to'g'rirog'i ittifoqdoshlarning Xitoy bilan chegarasi masalasi, undan tashqari o'rtadagi chegaralarda to'plangan katta harbiy kuchlar jamlanmasi Xitoyning keyingi taraqqiyoti uchun to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy faktor sifatida qaraldi. Shu maqsadda xitoy hukumati Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari bilan chegara masalasini hal qilishga kirishdi va ko'p tomonlama muzokaralar boshlanib ketadi. Undan tashqari Xitoy shu mamlakatlar bilan chegara hududlardagi harbiy kuchlar miqdorini qisqartirish masalasida ham muzokaralar boshlanadi. Shanxay Hamkorlik tashkiloti tarixida mana shu voqealar tashkilot tarixining boshlanishi hisoblanadi.

Aslida sobiq ittifoq hamda Xitoy chegarasida qurolli kuchlarni qisqartirish borasidagi muzokaralar ancha avval boshlangan. Muzokaralarning osonroq yechim topishida ikki davlatning bir siyosiy tizimdaligi yordam berdi. Chegara masalasida o'tgan asrning 60-yillarida boshlangan muzokaralar 1989-yil noyabr oyida Xitoy-Sovet muzokaralari bilan davom etdi, unda asosiy e'tibor chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy sohada bir-birini tushunishga qaratildi. Muzokaralar davom etib, nihoyat, 1990-yil 24-aprelida Xitoy va Sobiq sovet hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Unga binoan Sovet-

Xitoy chegaralarida belgilangan miqdorga qadar qurolli kuchlar qisqartirilib, harbiy sohada bir-birini anglashga qaratilgan memorandum imzolanadi. Har ikki tomon Sovet-Xitoy chegaralarida harbiy kuchlarni faqat mudofaa va qo'riqlash maqsadidagina saqlashni, bir-biriga hujum qilish va bosqinchilik operatsiyalaridan voz kechishni, chegara hududlarda qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish bilan birga ikki tomon bir-birini anglash, boshqa sohalardagi aloqalarni yaxshilash, harbiy qismlarni va obyektlarni bosqichma-bosqich ravishda qisqartirib borishga kelishib olishdi.²² Sobiq ittifoq davrida aynan shu muzokaralar sabab SSSR davlat rahbari M.S.Gorbachyov 1989-yil may oyida Xitoyga rasmiy safar uyushtiradi. Bunga javoban Xitoy rahbari Szyan Szemin 1991-yil may oyida Moskvada bo'ladi.²³

Tarixshunoslikda «Shanxay beshligi» yoki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti uchun dastlabki qadamlar aynan chegara masalasidagi muzokaralardan boshlandi deb qaraladi.

Tadqiqotchilar mazkur tashkilotning shakllanishidagi ikkinchi bosqich sifatida 1991-yil dekabrda 1997-yil aprelgacha bo'lgan davrni ko'rsatishadi. Bu davrga kelib, sobiq SSSR davlat sifatida tugab, uning o'rnida qator mustaqil davlatlar vujudga kelishi sababli endi Xitoy hukumati yuqoridagi muzokaralarni «sobiq ittifoqdosh» to'rt davlat - Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari hukumatlari bilan alohida-alohida holda olib borishga to'g'ri keldi.

1997-yil aprel oyidan 2000-yilga qadar bo'lgan vaqt tashkilot shakllanishining uchinchi bosqichi sifatida qaraladi. Aynan mana shu davrda tashkilotning besh a'zosi Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari o'rtasida harbiy va boshqa sohalarga oid doimiy muzokaralar o'tkazila boshlandi. Ayniqsa ular hududiy da'volardan voz kechib, mintaqaviy muammolarni hal etishga harakat qila boshladi. Harbiy sohadagi muzokaralarda bir tomondan Xitoy Xalq Respublikasi va ikkinchi tomondan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari birgalikda ishtirok etishdi. Boshqa

²² <http://www.impravo.ru>

²³ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

sohalarda besh davlat teng huquqli a'zo sifatida muzokaralarni ko'p tomonlama tartibda olib borishdi.

Umuman olib qaraganda "Shanhay beshligi"ning shakllanishi va uning Tashkilot maqomiga aylanishi ana shu o'n yillikda amalga oshdi. SSSR parchalangach, mustaqil Rossiya Federatsiyasi va Xitoy o'rtasida oldingi chegara masalasidagi muzokaralar davom etib, 1992-yil mart oyida Sharqiy hududlarda bir-birini anglashga oid kelishuvlar imzolanishi bilan tugadi. Mazkur shartnomalar har ikki tomonda ratifikatsiya qilindi. 1994-yil sentabrda Xitoy rahbari Szyan Szemin rasmiy tashrif bilan Rossiyaga keladi. Mazkur safar chog'ida Rossiya va Xitoy o'rtasida chegara masalasida yana bir shartnoma imzolanib, shartnomaga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi g'arbiy chegaralar masalasiga oydinlik kiritildi. 1995-yil oktabrda har ikki mamlakat parlamenti tomonidan mazkur shartnoma ratifikatsiya qilinadi. Shu tariqa birinchi bor Xitoy va Rossiya o'rtasidagi 4300 km.lik chegara o'zgartirish va qat'iyligi huquqiy jihatdan belgilab olindi.²⁴

Xitoy va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara masalasidagi kelishuv 1996-yil iyul oyida Xitoy rahbari Szyan Szeminning Bishkekka amalga oshirgan safari paytida imzolandi. Ammo bu shartnoma Xitoy, Qirg'iziston chegaralari muammosini to'la bartaraf etmadi. Keyinroq, chegara masalasidagi yana bir hujjat 1999-yil avgust oyida Xitoy va Qirg'iziston hukumatlari o'rtasida «Shanhay beshligi» tashkilotining davlat rahbarlari o'rtasidagi Bishkek uchrashuvi chog'ida Szyan Szemin va Askar Akayev o'rtasida imzolandi. Ushbu «Qirg'iziston va Xitoy o'rtasidagi davlat chegaralari to'g'risidagi qo'shimcha kelishuv» deb nomlanuvchi shartnoma Xitoy va Qirg'iziston o'rtasidagi 1000 km.dan ortiqroq chegara hududlarini huquqiy jihatdan tartibga soldi.²⁵ Amalda mazkur qo'shimcha shartnoma bilan xitoy-qirg'iz chegarasi masalasiga to'lig'icha yechim topildi.

Bugungi kunda Tojikiston va Xitoy o'rtasidagi chegara masalasi hamon o'z yechimini topmagan bo'lsa-da, ammo shu yo'nalishdagi ilk muzokaralar uchun 1999-yil avgustda Xitoy rahbari Szyan Szemin va Tojikiston prezidenti Imomali

²⁴ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

²⁵ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

Raxmonovlar o'rtasida Dalyan shahridagi uchrashuv chog'ida olib borildi. Biroq masalaga amaliy yechim topilmadi.

2000-yil iyul oyida Dushanbe shahrida «Shanxay beshligi»ning bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida Xitoy, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch tomonlama kelishuv imzolaniib, unda davlatlar o'rtasidagi chegara masalasiga oid munozarali holatlar tahlil qilindi. Aynan mana shu ikki kelishuv Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi chegara masalalarini hal etishdagi dastlabki qadam bo'ldi, deyish mumkin.²⁶

Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi chegara masalalari bo'yicha muzokaralar olib borish uchun 1994-yil aprel oyida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi kotibi Li Pen Qozog'istonga rasmiy tashrif bilan keladi. Shu uchrashuv paytida Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi chegaralarga oid kelishuv imzolandi. 1997 yil sentabrda Xitoy vaziri Li Pen yana bir bor Qozog'istonga rasmiy tashrif bilan keldi. Muzokaralar yakunida «Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi davlat chegaralari to'g'risidagi qo'shimcha kelishuv» shartnomasi imzolandi.²⁷ Mazkur shartnoma Xitoy-Qozog'iston chegaralarini huquqiy jihatdan amalda tan olinganligini anglatdi.

Yangi munosabatlar sharoitida chegara masalasi bilan birga Xitoy hukumati sobiq chegara hududlaridagi harbiy qismlar masalasiga ham e'tibor qaratib keldi. Shu maqsadda 1996-yil 26-aprelda Xitoyning Shanxay shahrida birinchi marta sobiq SSSR parchalangach, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda harbiy sohada o'zaro ishonch to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, barcha tomon chegara hududlarda qurolli kuchlar miqdorini kamaytirish, bir-biriga qurolli tahdid solmaslik, boshqa mamlakatlar bilan ham bir-biriga tahdid solmaslik, zarur holatlarda harbiy mashg'ulotlar o'tkazib turish, biror-bir tomonga harbiy xavf yuzaga kelgan holatda shartnomani imzolayotgan mamlakatlar armiyalari bir-biri bilan ma'lumot almashishga va hamkorlik qilishga kelishib olishdi.²⁸

²⁶ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

²⁷ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

²⁸ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

Ana shu uchrashuvda 1996-yil 26-aprelda Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida “Shanxay beshligi”ni tashkil etish to‘g‘risidagi bitimni imzolashdan boshlangan, uning maqsadi–tashkilotning a‘zo-davlatlari o‘rtasidagi chegarada qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy ishonchni o‘rnatish bo‘yicha choralarni qabul qilish bo‘ldi. Mazkur sammitda uchrashgan davlat rahbarlari harbiy sohada bir-biriga ishonch, chegara hududlarida qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish, boshqa bir uchinchi davlat tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf sharoitida bir-biriga qarshi chiqmaslik, dushmanga qarshi kurashga mo‘ljallangan harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazib turish, harbiy xizmatchilar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatish, chegarachilarning doimiy maslahat va tajriba almashuvini yo‘lga qo‘yish kabi masalalar ko‘rib chiqildi.²⁹

Forum ishtirokchilarining ikkinchi uchrashuvi 1997-yil 24-25 aprel kunlarida bo‘lib o‘tdi. Unda bir tomondan Xitoy Xalq Respublikasi va ikkinchi tomondan o‘zaro hamkor davlatlar sifatida Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston respublikalari ishtirok etishadi. Uchrashuv chog‘ida XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston respublikalari o‘rtasidagi davlat chegaralarida qurolli kuchlarni qisqartirish borasidagi qo‘shma shartnoma imzolandi. Shartnomaga binoan har bir davlat chegarasidan 100 km. ichkarigacha bo‘lgan hududlar geografik makon sifatida tan olinadi. Harbiy qismlar faqatgina ma‘lum bir belgilangan hududlardagina joylashtirilib, ularning soni ham maksimal darajada kamaytirishga kelishib olindi.

Davlatlar o‘z chegaralarida faqatgina chegara qo‘shinlarini saqlash bilan birga boshqa harbiy kuchlar turlarini, xususan, harbiy havo kuchlari, quruqlik qo‘shinlari va boshqa og‘ir texnikalarni faqatgina chegaradan 100 km. ichkarida saqlashi mumkin bo‘lishi belgilandi.

Besh davlat o‘rtasidagi 7000 km.lik umumiy chegara (shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan) hududlarida joylashtirilgan harbiy xizmatchilar, quruqlikdagi qo‘shinlar

²⁹ Соглашение между РФ Республикой Казахстан, Киргизской республикой, республикой Таджикистан и КНР о взаимной сокращении вооруженных сил в районе границы. С.4.//<http://www.impravo.ru>.

va boshqa harbiy qismlarning umumiy soni 130400 kishidan oshmasligi kerak edi.³⁰

Mazkur uchrashuvda ham asosiy e'tibor chegara hududlaridagi qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish masalasiga qaratiladi. Faqatgina bu safar chegara hududlaridagi harbiy xizmatchilarning soni, qurolli kuchlarning miqdori ham aniq ko'rib chiqiladi. Ammo mazkur sammitda imzolangan shartnomalar doimiy ahamiyatga ega bo'lmay, 2010-yil 31-dekabrga qadar muddatgacha deb belgilandi.

1997-yil aprel oyidagi uchrashuvlardan keyin «Shanxay beshligi» doirasidagi hamkorlik faqatgina chegara masalasi yoki chegara hududlardagi qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish borasida bo'lib qolmasdan, boshqa sohalarda ham amalga oshirila boshladi. Ayniqsa, aloqalar keng miqyosli ravishda siyosat, diplomatiya, harbiy masalalar, xavfsizlik masalalari va iqtisodiy sohalardagi muzokaralar e'tiborga olinmoqda.

Shu tariqa rasman «Shanxay beshligi»ning tarixi chegaradosh besh davlatning chegara hududlaridagi xavfsizlikni ta'minlash borasidagi kelishuvlardan boshlandi.

1998-yil 3-4 iyul kunlari Alma-ota shahrida «Shanxay beshligi» forumi doirasidagi uchinchi uchrashuv bo'lib o'tadi. Beshala ishtirokchi davlat rahbarlari mazkur uchrashuv doirasida «Alma-ota bayonoti» qabul qilinadi. Unga ko'ra, barcha tomonlar 1997-yil 24 aprelda imzolangan chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirishga doir shartnoma shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmalariga olishdi. Shu majburiyatlarni bajarish bilan birga barcha respublikalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga, mintaqaviy muammolarni hal etishda doimiy ravishda muzokaralar va kelishuvlar asosida davlatlararo qiziqishlar hisobga olingan holda amalga oshirishi zarur edi. Tomonlar har qanday separatizm, etnik ziddiyatlar, diniy ekstremizm, diniy fundamentalizm terrorchilikka qarshi chiqishga, ularni oldini olish, bartaraf etishga kelishib olishdi.³¹

³⁰ <http://www.impravo.ru>

³¹ Совместное Заявление участников Алма-атинской встречи – Республики Казахстан, КНР, Кыргызской Республики, РФ и Республики Таджикистан// <http://www.impravo.ru>

Forum ishtirokchilari asosiy e'tiborni global darajaga ko'tarib ulgurilgan xalqaro terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, jinoyatchilikning tashkiliy, uyushgan shakllariga qarshi kurashishga qaratishdi.

«Shanxay beshligi» forumiga a'zo davlatlar rahbarlarining doimiy uchrashuvining yo'lga qo'yilishi natijasida hamkorlik doirasi ham doimiy ravishda kengayib bora boshladi.

2000-yil 9-iyulda Dushanbe shahrida «Shanxay beshligi»ning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda ishtirokchi davlatlar tomonidan «Dushanbe Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyaga muvofiq, tomonlar kelajakda bir-biriga ishonch, do'stona hamkorlikni besh davlat o'rtasida saqlab qolish, munosabatlarni yanada rivojlantirish, davlatlar o'rtasidagi harbiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish maqsadida mudofaa vazirlari doirasidagi doimiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, bir-biri bilan maslahatlashish, ma'lumot almashishga kelishib olishdi. Shu tariqa «Shanxay beshligi» davlatlarining mudofaa strukturasi ishlab chiqildi.

Sobiq SSSRning parchalanishi natijasida shu tashkilotga a'zo bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalaridagi ma'lum iqtisodiy hamda siyosiy ziddiyatlarni bartaraf etish asosiy muammo bo'lib qola boshlaydi. Iqtisodiy muammolarning ko'payib borishi, ularning bartaraf etilishida Xitoy tomonidan yordam berilishi, qo'llab-quvvatlanishi hozirgi dunyodagi zamonaviy ilm-fan, texnika yangiliklari asosida milliy ishlab chiqarishlarni oyoqqa qo'yishga kelishib olindi.

2000-yil iyulida Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida «Shanxay beshligi» tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining beshinchi uchrashuvi tashkilot tarixida muhim o'rin tutadi. Sammitning bosh mavzusi diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yagona dastur ishlab chiqish birgalikda harakat qilish haqida bo'ldi. Birinchi marta maskur sammitda O'zbekiston Respublikasi rasman kuzatuvchi sifatda ishtirok etdi 2001-yil iyunda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston

boshliqlarining Shanxaydagi uchrashuvida sodir bo'ldi. O'zbekiston tashkilotga yangi a'zo sifatida kirdi.

2001-yil tashkilotning rivojlanishidagi ikkinchi bosqichning boshlanishi bo'ldi. Bir qator ekspertlarning fikricha, O'zbekistonning ShHTdagi ishtiroki bu tashkilotning faoliyatini kelgusida faollashtirishda juda katta rol o'ynadi. 2001-yil 15-iyunda sammitda ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya qabul qilindi. Uchrashuv davomida qabul qilingan ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya BMTning rasmiy hujjatlari sifatida tarqatilgan edi. Konvensiyaga muvofiq ShHT a'zolari qonunga zid bo'lgan qilmishlarni oldini olish, bartaraf etish, aniqlash va ko'rsatish ishida o'zaro hamkorlik qilishlari kerak edi.

1.2. Shanxay Hmkorlik Tashkilotining maqsadi, vazifalari va tamoyillari.

Faoliyat mexanizmi va tashkiliy tuzilmasi

Tarixdan ma'lumki dastlabki xalqaro tashkilot maqomidagi birlashmalar g'arbda paydo bo'lgan edi. Birinchi siyosiy hukumatlararo tashkilot bo'lgan Millatlar Ligasi XX asrning boshlarida tashkil topib, ma'lum darajada dunyodagi globallashuv jarayonining tezlashishiga turtki berdi. Uning vorisi sifatida xalqaro universal tashkilot – BMT vujudga keldi. Millatlar Ligasidan farqli ravishda BMT butun bir xalqaro ixtisoslashgan mahkama va institutlar tizimini qamrab oldi. Bugungi kunda siyosatshunoslik fanida xalqaro hukumatlararo tashkilotga nisbatan «ma'lum bir kompetensiyalar sayloviga va doimiy idoralarga ega bo'lgan xalqaro shartnomalarga asosan boshqariluvchi davlatlarning stabil birlashmasi tushuniladi».³² Bugungi kunda fransuz mutaxassisi Sh.Zorgbib bu tashkilotlarning uchta muhim jihatini ko'rsatib o'tadi. Bular:

- ta'sis hujjatlarida qayd etilgan hamkorlikka bo'lgan siyosiy intilish;
- tashkilotning rivojlanishini ta'minlovchi doimiy apparatning mavjudligi;
- kompetensiyaga (tamoyillar, me'yorlar, vazifalar) egalik va qarorlardagi erkinlik.³³

Mutaxassislar xalqaro tashkilot sifatida namoyon bo'lishlikning besh asosiy jihatini qayd etishadi. Birinchidan, ta'sis shartnomasi yoki nizomga egalik. Ikkinchi xususiyat, tashkilotning aniq belgilangan maqsadga egaligi yoki huquqshunoslar tili bilan aytganda tashkilot tamoyil va me'yorlarning mavjudligi. Uchinchi xususiyati, doimiy faoliyat yurituvchi organlar: oliy, ijroiya, ma'muriya, maxsus qo'mitalar va komissiyalarning mavjudligi. To'rtinchi va beshinchi xususiyatlari sifatida xalqaro huquq subyekti sifatida mustaqil huquq va majburiyatlarga ega ekanlik hamda xalqaro huquq talablari asosida tashkilot tuzishni ko'rsatib o'tish mumkin.³⁴

Shu ma'noda Shanxay beshligining rasmiy Tashkilotga aylanishi uchun ham yuqoridagi xususiyatlar talab etilishi ta'biydir. Ana shu xususiyatlarning

³² Цыганов П.А. Международные отношения. – М., Новая школа. 1996. С.178.

³³ Шарапова С.Ш. Многосторонность и внешняя политика Республики Узбекистан. Т., 2007. С.18.

³⁴ Шарапова С.Ш. Многосторонность и внешняя политика Республики Узбекистан. Т., 2007. С.19.

birinchisiga tayangan holda 2002-yil iyunda Sankt-Peterburgdagi uchrashuvda asosiy hujjat - tashkilot Hartiya (Ustavi)si imzolandi, shuningdek, Sankt-Peterburg Deklaratsiyasi qabul qilindi. Asosiy hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir necha quyidagi masalalar ko'rildi:

- a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shniçilik aloqalarini mustahkamlash;

- mintaqada tinçlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy-iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;

- terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga karshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy, jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetika, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

- a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluksiz yaxshilash maqsadida teng sheriklik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy-ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish;

- xalqaro nizolarning oldini olish hamda ularning tinç yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

- davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligi davlat chegaralarining daxlsizligini hurmat qilish, tajovuz qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch bilan tajovuz qilish, chegara hududlarda bir tomonlama ustunlikdan voz kechish;

- a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovçiliklarni tinç yo'llar bilan hal etish;

- ShHTning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotga qarshi qaratilmagani.

Ushbu masalalar asosida Sankt-Peterburgdagi sammitda qabul qilingan Xartiyaning 1-moddasida mazkur tashkilotning maqsad va vazifalari aniq belgilab

berildi. Unga ko'ra: a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnicilik aloqalarini mustahkamlash; mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy-iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish; terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy, jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish; siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetika, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash; a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluksiz yaxshilash maqsadida teng sheriklik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish; xalqaro nizolarning oldini olish hamda ularning tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash; davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligi davlat chegaralarining daxlsizligini hurmat qilish, tajovuz qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch bilan tajovuz qilmaslik, chegara hududlarda bir tomonlama ustunlikdan voz kechish; a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'llar bilan hal etish; ShHTning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotga qarshi qaratilmagani.³⁵

Xalqaro tashkilot sifatida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining ramzlari qabul qilindi. (1-ilovaga qaralsin)

Sankt-Peterburgda qabul qilingan Xartiyaning 2-moddasida ShHTga a'zo davlatlar quyidagi tamoyillarni qo'llab-quvvatlashi belgilandi:

Davlatlarning suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligini hurmat qilish va davlat chegaralarining buzulmasligini, hujum qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda taz'iy qo'yish yoki kuch ishlatmaslik, ma'lum

³⁵ История становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. Отв ред. Р.М.Абдуллаев, Д.А.Алимова. – Тошкент, 2011. С.159.

rayonlarda bir tomonlama harbiy ustunlikdan voz kechish; har bir a'zolarining manfaatini xurmat qilish va tushunishdan kelib chiqib, a'zo davlatlar o'rtasida teng huquqlik asosida birgalikda yechim topish; bosqichma-bosqich umumiy manfaatlar yo'lida birgalikda harakatni amalga oshirish; a'zo davlatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish; ShHTni boshqa davlat yoki tashkilotlarga qarshi qo'ymaslik; ShHT manfaatlariga qarshi qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik; mazkur Xartiya hamda ShHT doirasida qabul qilingan boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ko'ngildan bajarish va h.k.³⁶

Xartiyada ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkilot doirasida quyidagi tuzilmalar, ya'ni institutlar faoliyat ko'rsatishi belgilangan:

- Davlat boshliqlari Kengashi;
- Hukumat boshliqlari Kengashi;
- Tashqi ishlar vazirlari Kengashi;
- Vazirliklar va idoralar rahbarlari Majlisi;
- Milliy kordinatorlar Kengashi;
- Mintaqaviy antiterror strukturasi;
- Kotibiyat. (2-ilovaga qaralsin)

Bu barcha organlar ijroiya funksiyasini bajarib, parlament assambliyasi yoki yagona sud ko'rinishidagi organlar faoliyat ko'rsatmaydi. Bu ShHT tuzilmaviy rivojlanishining boshlang'ich bo'g'inida ekanligini ko'rsatib turibdi.

Mintaqaviy antiterror strukturasi hisobga olmaganda ShHT organlarining ish tartibi va funksiyasi davlat boshliqlari kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli qarorlar bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat boshliqlari kengashi ShHTda boshqa organlarni ham tashkil etishi mumkin. Yangi organlarni tashkil etish Xartiyaga qo'shimcha bayonnomalar qo'shish ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

³⁶ История становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. Отв ред. Р.М.Абдуллаев, Д.А.Алимова. – Тошкент, 2011. С.160.

Davlat boshliqlari kengashi ShHTning oliy organi bo'lib, u tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishini ishlab chiqadi, uning ichki tuzilmasi va funksiyasi bilan bog'liq prinsipial, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari masalalarini hal qiladi, hamda nisbatan dolzarb deb hisoblanayotgan xalqaro muammolarni qarab chiqadi. Kengash bir yilda bir marta navbatdagi majlisda to'planadi. Navbatdagi majlisni tashkil qiluvchi davlat mazkur kengashning amaldagi raisi sifatida qaraladi. Navbatdagi kengash majlisini o'tkazish joyi rus alfaviti asosida ShHTga a'zo davlatlarning nomidan kelib chiqib belgilanadi.³⁷

A'zo davlatlarning hukumat boshliqlari kengashi Tashkilotning byudjetini qabul qiladi. Tashkilot doirasida o'zaro iqtisodiy hamkorlik sohasini rivojlantirishga asoslangan aniq asosiy masalalarni muhokama qilib hal qiladi. Bu kengash ham yilda bir marta navbatdagi majlis muddatiga qarab to'planadi. Bu majlis qaysi davlat hududida tashkil etilgan bo'lsa o'sha davlatning hukumat rahbari unga raislik qiladi. Hukumat boshliqlari kengashining navbatdagi majlis o'tkazish joyi a'zo davlatlar hukumat boshliqlari tomonidan oldindan kelishuv asosida belgilab olinadi.

Tashqi ishlar vazirlari Kengashi tashkilot faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qiladi, davlat boshliqlari kengashi majlisi tayyorlaydi va tashkilot doirasida xalqaro muammolar bo'yicha konsultatsiyalar o'tkazadi. Mazkur kengash zarur hollarda ShHT nomidan bayonot bilan chiqishi mumkin. Tashqi ishlar vazirlari Kengashi qoidaga muvofiq davlat boshliqlari kengashi majlislari o'tkazishdan bir oy oldin yig'iladi. Bu kengashning navbatdan tashqari majlisi ikkitadan kam bo'lmagan a'zo davlatlarning tashabbusi bilan va a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlarining roziligi bilan chaqirilishi mumkin. Kengashning navbatdan tashqari va navbatdagi majlislari o'zaro kelishuvga muvofiq belgilab olinadi. Majlisni o'zida qabul qilayotgan davlat boshliqlari kengashi majlisiga raislik qiluvchi davlatning tashqi ishlar vaziri mazkur kengashga raislik qiladi. Davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari kengashlari tomonidan qabul qilingan

³⁷ Хартия ШОС. С.2// <http://www.SCO.ru>

qarorlar asosan a'zo davlatlarning soha vazirliklari va idora boshliqlari doimiy ravishda ShHT doirasida tegishli sohalar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishning aniq masalalarini muhokama qilish uchun to'planadilar. Bu yig'ilishga majlisni tashkillashtiruvchi davlatning tegishli vazirlik yoki idorasi boshlig'i raislik qiladi. Navbatdagi majlis vaqti va joyi oldindan kelishuv asosida belgilanadi. A'zo davlatlarning dastlabki kelishuvi bo'yicha majlisga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish uchun doimiy yoki muvaqqat asosida faoliyat ko'rsatuvchi ekspertlardan iborat ishchi guruhlar tuziladi. Mazkur ishchi guruhlar vazirliklar va idoralar boshliqlari majlisida tasdiqlangan ish meyori asosida faoliyat ko'rsatadi. Bu guruhlar a'zo davlatlarning vazirlik yoki idoralari vakillaridan tarkib topadi.³⁸

ShHT tarkibidagi milliy muvofiqlashtiruvchi kengash tashkilotning joriy faoliyatini va boshqaruvini amalga oshiradi. U davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari va tashqi ishlar vazirlari kengashining majlisiga tayyorgarligini amalga oshiradi. Milliy muvofiqlashtiruvchilar har bir a'zo davlat tomonidan o'zlarining ichki tartib va qoidalari asosida tayinlanadi. Bu kengash bir yilda kamida uch marta yig'iladi. Bu kengashga raislikni navbatdagi davlat boshliqlari sammiti o'tadigan a'zo davlatning milliy muvofiqlashtiruvchisi amalga oshiradi.

2001-yilning 15-iyunidagi terrorizm, separatizm, ekstremizga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi asosida tashkil etilgan a'zo davlatlarning mintaqaviy antiterror tuzilmasi ShHTda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organ bo'lib, qarorgohi Qirg'izistonning Bishkek shahrida joylashgan. Bu tuzilma haqida tadqiqot ishining ikkinchi bob ikkinchi paragrafida batafsil to'xtalib o'tganmiz.

Kotibiyat ShHTning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ma'muriy organi hisoblanadi. U ShHT doirasida o'tkaziladigan tadbirlarning tashkiliy texnik ta'minotini tashkil qiladi. Tashkilotning yillik byudjeti bo'yicha loyiha tayyorlaydi. Kotibiyatga tashqi ishlar vazirlari kengashi taqdimnomasiga ko'ra davlat boshliqlari kengashi boshliqlari tomonidan tasdiqlangan Ijroiya kotib boshchilik qiladi. Ijroiya kotib a'zo davlatlar fuqarolari ichidan a'zo davlatlar nomlarining rus alfaviti tartibidagi ratatsiyasi asosida uch yillik muddatga tayinlanadi. Ijroiya kotib

³⁸ Хартия ШОС. С.8// <http://www.SCO.ru>

o'rin bosari bo'lsa milliy muvofiqlashtiruvchi kengashi taqdimnomasiga ko'ra tashqi ishlar vazirlari kengashi tomonidan tayinlanadi. Mazkur shaxs ijroiya kotibi mansub bo'lgan davlat vakili bo'lmasligi kerak. Kotibiyatdagi lavozimlarga a'zo davlat fuqarolari ichidan kvota asosida tanlab olinadi.

Ijroiya kotibi uning o'rinbosari va boshqa kotibiyatning mutasaddi shaxslari xizmat vazifasini bajarayotgan vaqtida hech qanday a'zo davlat yoki hukumatidan, tashkilot yoki jismoniy shaxslardan ko'rsatma olmaslik yoki murojaat qilmaslik mumkin emas.

A'zo davlatlar ijroiya kotibi, uning o'rinbosari va kotibiyat mansabdorlari majburiyatining xalqaro xarakterlarini hurmat qilishi va ularning xizmat vazifasini bajarishga ta'sir o'tkazmasliklari shart. Shundan kelib chiqqan holda mazkur tuzilma umumbashariy xarakterini kasb etadi. ShHTning kotibiyat qarorgohi Pekin shahrida joylashgan.³⁹

Shunday qilib ShHT institutlari milliy ustuvorlik hisoblanadi va milliy hukumatlardan ayri holda faoliyat ko'rsatadi.

ShHT a'zo davlatlar o'rtasidagi maxsus kelishuvlar bo'yicha shakllantiriladigan va ijro etiladigan o'zining shaxsiy byudjetiga ega. Mazkur kelishuvlarda shuningdek, a'zo davlatlar har yili o'tkazadigan a'zolik ulushi tamoyillariga asoslanadigan badal miqdorlari ham belgilanadi.

ShHT o'zining alohida byudjetiga ega bo'lgan tashkilot hisoblanadi. Bunda tashkilotga a'zo davlatlar hissasiga umumiy byudjetning quyidagi miqdori to'g'ri keladi:

1. Xitoy Xalq Respublikasi – 23,5%
2. Rossiya Federatsiyasi – 23,5%
3. Qozog'iston Respublikasi - 20%
4. O'zbekiston Respublikasi - 15%
5. Qirg'iziston Respublikasi - 12%
6. Tojikiston Respublikasi - 6%⁴⁰

³⁹ Хартия ШОС. С.11.// <http://www.SCO.ru>

⁴⁰ Соглашение о порядке формирования и исполнения бюджета ШОС.// <http://www.SCO.ru>

Tashkilot byudjeti bir kalendar yilini tashkil etadi. Ayni vaqtda mazkur yil hukumat boshliqlari kengashi tomonidan tasdiqlanadigan moliya yili ham hisoblanadi. Yillik badallar va tushumlar AQSh dollari hisobida amalga oshiriladi.

A'zolik badallari summasi milliy muvofiqlashtiruvchilari kengashi bilan kelishuv asosida Ijroiya kotib tomonidan belgilangan bank hisob raqamiga o'tkaziladi. A'zo davlatlar tomonidan to'lanmay qolgan yillik ulush badallari summasi mazkur davlatning tashkilot oldida qarzdorligiga olib keladi. Mazkur Kelishuvning depozitori Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Byudjet mablag'lari ShHTda doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi organlarni moliyalashtirishga sarflanadi. A'zo davlatlarning har biri Tashkilot tadbirlarida ularning vakillari va ekspertlari ishtiroki bilan bog'liq xarajatlarni o'zlari ko'taradi.⁴¹

ShHT eshiklari uning xartiyasi tamoyillari va maqsadlariga amal qiluvchi mintaqaning boshqa davlatlarining a'zoligi uchun ochiqdir. A'zo bo'lib kiruvchi davlatlar, shuningdek, ShHT doirasida qabul qilingan boshqa xalqaro shartnomalar va hujjatlarga ham rioya etishlari shart. ShHTga yangi a'zolarning qabul qilinishi masalasi tashqi ishlar vazirlari Kengashining taqdimnomasiga asosan davlat boshliqlari kengashida qabul qilinadi. Tashqi ishlar vaziri Kengashi bunda amaldagi kengash raisi nomiga yo'llangan a'zo bo'lish istagidagi davlatning rasmiy arizasi asosida taqdimnoma tayyorlaydi.

ShHT tarkibidagi istalgan a'zo davlat uning a'zolidan chiqish huquqiga ega. Xartiyadan chiqish uchun 12 oy muddatdan kam bo'lmagan vaqt ichida rasman murojaat qilinishi kerak.

ShHT organlaridagi qarorlar ovoz berish yo'liga asoslanmagan saylov yo'li bilan amalga oshiriladi va bu kelishuvda a'zo davlatlarning birortasi qarshi chiqmagan taqdirda (konsensus) bu qaror qabul qilingan hisoblanadi. Konsensus tarkibi faqatgina tashkilotga a'zolikka kirish yoki chiqish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda qo'llanmaydi. Bunday qarorlar uchun «manfaatdor a'zo davlat uchun minus bitta ovoz konsensus» tamoyili asosida amalga oshiriladi.

⁴¹ Становление и развитие ШОС // <http://www.SCO.ru>

Mazkur tamoyil faqatgina kam ahamiyatli masalalarni hal qilishda yordam berishi mumkin. Amalda murakkab muammolarga tomonlarning turli xil pozitsiyadaligi sababli yechim topilmaydi. Xususan, ShHT Abxaziya va Janubiy Osetin mustaqilligini shu tamoyil tufayli tan olmadi.

Istalgan a'zo davlatlar qabul qilinayotgan qarorlarning alohida aspektlar yoki aniq masalalari bo'yicha o'z nuqtai nazarini bildirishi mumkin. Bu holat mazkur qarorning to'lig'icha qabul qilinmasligiga qarshilik qilmaydi. Mazkur davlatning nuqtai nazari majlis bayonnomasiga qayd etiladi. Shuning uchun ham ShHT tarkibiga kiruvchi davlatlar o'zlarining bo'ynida amalda katta majburiyat borligini his qilishmaydi. Bu ShHTning integratsion birlashma sifatidagi mexanizmi yetarlicha zaif ekanligini anglatadi. Boshqa tarafdin olib qaraganda ShHT doirasidagi hamkorlik alohida sohalar bo'yicha ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda rivojlanishi mumkin.

ShHT organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar a'zo davlatlar tomonidan ularning milliy qonunchiligi tartiblari asosida ijro etiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ShHTda qabul qilingan qaror amalda Milliy qonunchilikdan kelib chiqib o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, ShHT doirasida qabul qilingan qarorlarni bajarishda tomonlar uchun o'zlarining milliy qonunchiligi birlamchi ahamiyatga egadir.

ShHT doirasida qabul qilingan qarorlar va shartnomalarning a'zo davlatlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish ShHT organlari zimmasiga yuklatilgan, ammo yagona nazorat qiluvchi organ faoliyat ko'rsatmaydi.

A'zo davlatlar o'zlarining ichki tartib va qoidalari asosida ShHT kotibiyatiga doimiy vakillarini tayinlaydilar. Mazkur vakillar ayni vaqtda Pekindagi a'zo davlatlar elchixonasining diplomatik korpusi tarkibiga kiradi.

ShHT va uning mansabdor shaxslari barcha a'zo davlatlar hududida tashkilotning maqsad va funksiyalarini bajarish uchun turli imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi. ShHT va uning mansabdor shaxslarining imtiyozlari miqdori va immuniteti alohida xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi.⁴²

⁴² Хартия ШОС. С.18.// <http://www.SCO.ru>

Ko'rinib turibdiki, garchan geosiyosiy nuqtai nazardan olib qaraganda ShHT xalqaro munosabatlar tizimida nufuzli bir tashkilotga aylangan bo'lsada, lekin tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv tartibi, ijro mexanizmi kabi holatlarda hamon yechimini topish kerak bo'lgan muammolar yetarli.

1.3. ShHT XXI asrning yetakchi mintaqaviy tuzilmasi sifatida xalqaro miqyosda tan olinishi (2001-2011 yy.)

2000-yil 5-iyulda Dushanbe shahrida bo'lgan «Shanxay beshligi»ning beshinchi sammitida ilk bora forum a'zolari ekstremizm, terrorizm, hududiy xavfsizlik masalalari keng miqyosda ko'rib chiqiladi. Dushanbe sammitining yana bir muhim jihati shundaki, unda ilk bor O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov ishtirok etadi. Unda Xitoy rahbari Szyan Szemin Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hududga aylantirish g'oyasi va tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.⁴³

2001-yil 14-15 iyun kunlari Xitoyning Shanxay shahrida «Shanxay beshligi»ning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Ana shu uchrashuvda O'zbekiston shu tashkilotga rasman a'zo bo'ldi, tashkilotning nomi ham o'zgarib, unga «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» deb nom berildi, uning oltinchi a'zosi bo'lgan O'zbekiston tashkilotga a'zo sifatidagina emas, balki ta'sischi sifatida ham tan olinadi. Tashkilotning avvalgi besh a'zo davlatlari tomonidan O'zbekistonning mazkur tashkilotga kirishi bir ovozdan ma'qullandi. Ayniqsa, Xitoy tomoni O'zbekistonning a'zolicini faol qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy tomonining fikricha, O'zbekistonning tashkilotga a'zolicigi mintaqaviy jihatdan olib qaraganda tashkilot yaxlitligini ta'minlaydi.⁴⁴ (3-ilova qaralsin)

2004-yil iyun oyida O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov va XXR rahbari Xu Szintaolarning uchrashuvida ham tashkilotga O'zbekistonning a'zolicini Xitoy tomoni qattiq qo'llab-quvvatlangani bir necha marta ta'kidlandi.⁴⁵

O'zbekiston uchun tashkilotga a'zolic qator ijobiy xususiyatlarda namoyon bo'lib, ularning barchasi mamlakat taraqqiyoti va xalq manfaati uchun xizmat qilishi nazarda tutilgan. Undan tashqari, Xitoy va Rossiya kabi harbiy va iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar bilan yagona tashkilotda bo'lishi yurtimiz uchun juda katta ham iqtisodiy va ham siyosiy ahamiyatga ega. Sababi, Rossiya ham Xitoy ham dunyo siyosatida alohida zarur hollarda hal qiluvchi o'rin egallaydi, undan

⁴³ Нарзулла Жўраев, Турсунбой Файзуллаев. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.3. Т., 2009. 634-бет.

⁴⁴ Нарзулла Жўраев, Турсунбой Файзуллаев. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.3. Т., 2009. 635-бет.

⁴⁵ Халқ сўзи. 2004 йил 16-июнь. №126 (3401). 1-бет

tashqari Xitoy keyingi 20-30 yil davomida juda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning tajribasi keyingi yillarda boshqa mamlakatlar uchun ham tajriba vazifasini bajarishi mumkin.

Tashkilotga a'zo mamlakatlar Shanxay hamkorlik tashkilotini NATO kabi harbiy blokka aylantirmagan holda avvalo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratib, xalqaro terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, separatizm kabi davlatlar va xalqlar tinchligiga rahna solib turgan salbiy holatlarga qarshi birgalikda kurash olib borish va bu yo'lda barcha kuch hamda imkoniyatlarni birlashtirishga kelishib olishdi.

Tashkilotga a'zo mamlakatlar tashkilot doirasida davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini kuchaytirish, ko'p tarmoqli munosabatlarni, hamkorlikni rivojlantirish, hududda tinchlik va yangi demokratik tartiblarni o'rnatishga, birgalikda terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy savdosi va transmilliy jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlarga qarshi birgalikda kurash, hududdagi davlatlar o'rtasidagi siyosiy va mudofaaga asoslangan hamkorlikni kuchaytirish bilan birga huquqiy himoya, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, fan-texnika, ta'lim-tarbiya, energetika, transport, kredit-moliya va boshqa sohalardagi aloqalarni yanada rivojlantirish dunyo iqtisodiga yanada integratsiyalashish, inson huquqlari va erkinliklari borasida, milliy qonunchilik sohasida hamkorlik qilish, davlatlararo va xalqaro miqyosdagi aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro ziddiyat va muammolarni munozaralar yoki tinch yo'l bilan bartaraf etish, yangi XXI asrdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va mavjud muammolarni birgalikda hal etish ham tashkilot a'zolari oldida turgan ustuvor yo'nalishlar sifatida qaraldi.⁴⁶

Shunday qilib, 2001-yilga kelganda Shanxay hamkorlik tashkilotiga bugungi kunda 6 ta davlat XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari a'zo bo'lib, 4 ta davlat – Hindiston, Pokiston, Eron va Mo'g'uliston kuzatuvchi va yana 2 davlat – Belorussiya va Shri Lanka (Seylon) muloqotchi hamkor davlat maqomida ishtirok etishdi. ShHTga

⁴⁶ Хартия ШОС. С.1// <http://www.SCO.ru>

a'zo davlatlarning umumiy hududi 30,2 mln km²ni tashkil qiladi, aholisi soni 1,5 mlrdga yaqin kishini tashkil etadi.

A'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar xavfsizlik masalasida, iqtisodiy sohada, madaniy va gumanitar hamkorlik hamda boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Tashkilotning Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya kabi iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan doimiy aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar tashkilotga a'zolikdan har biri ma'lum bir maqsadni ko'zlagan va shu bilan birga manfaat doiralari borligini ta'kidlash o'rinlidir.

Xitoy.

- Xitoy keyingi yillarda qudratli ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirgan holda o'zining mahsulotlarini dunyo mamlakatlariga katta miqdorda chiqara boshladi. Nisbatan «to'yinmagan» bozor deb hisoblangan sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston bozorlari Xitoy sanoat mahsulotlarining ma'lum bir qismini sotuvchi bozor bo'lishi mumkin edi.

- Undan tashqari Xitoyda energiya manbalari cheklanganligi sababli energetika, xususan neft va gazga juda boy Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston, hamda O'zbekiston orqali Turkmaniston bilan shu sohalarda aloqa qilish manfaatli. Ayniqsa Rossiya va Qozog'iston yirik neft va gaz, O'zbekiston yirik gaz zahiralari ega. Buning misoli sifatida Xitoyga yirik gaz quvuri orqali gaz yetkazib berila boshlaganini ko'rsatish mumkin.

- Xitoy geografik jihatdan ulkan mamlakat. Shu sababli u ShHT orqali deyarli chegara hududlari katta qismining oz bo'lsada tinchligini ta'minlashni maqsad qilgan.

Rossiya.

- Rossiya sobiq SSSR doirasida bo'lgan O'rta Osiyo respublikalari bilan yanada yaqinlashishdan har tomonlama manfaatdor. Sababi, O'zbekiston uning to'qimachilik sanoati uchun paxta xom-ashyosini yetkazib beruvchi asosiy davlat

bo'lsa, Qozog'iston orqali ko'pgina hududlarga chiqish imkonini beruvchi xalqaro yo'llar mavjud.

- Undan tashqari O'rta Osiyodagi O'zbekiston va Turkmaniston yirik gaz konlariga ega bo'lganligi uchun Rossiya ularni sotib olib Yevropaga gaz yetkazib berish orqali yaxshigina daromad ko'radi. Rossiya sanoat mahsulotlari uchun O'rta Osiyo respublikalari yaxshigina tashqi bozor bo'lishi mumkin.

Qozog'iston.

- Qozog'iston g'oyat ulkan hududga ega bo'lib, uning hududida juda yirik va ko'p foydali qazilma konlari mavjud. Ularni o'zlashtirish boshqa mamlakatlarga yetkazib berishni mamlakat o'zi yolg'iz amalga oshira olmaydi.

- Shunday ekan Qozog'iston Xitoy misolida juda yirik neft va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari iste'molchisini ko'radi. Bir tashkilot doirasida qator yengilliklar asosida savdo-sotiq qilish Qozog'iston uchun ham foydadan holi emas.

O'zbekiston.

- O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan davlat bo'lishi bilan birga, hududda yashovchi aholining yarmiga yaqini shu yerda istiqomat qiladi. Boy o'tmishga, qudratli ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lib, tashqi sarmoya kiritish uchun juda qulay mamlakat, malakali kadrlarga ega bo'lgan O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida Rossiya va Xitoy kabi ulkan tashqi bozorlarga o'z mahsulotini yetkazib berishi mumkin. Sanoati va ishlab chiqarishning boshqa sohalari jadal rivojlanib borayotgan O'zbekiston kabi davlat uchun bu kabi tashqi bozorga egalik qilish juda muhim ahamiyatga egadir.

- Mintaqadagi geosiyosiy holatlarda, xususan, uchinchi bir davlatning bosimi, tazy'iqidan ShHT muhim «himoya» vositasi bo'lishi mumkin.

- Ayrim global muammolar Afg'oniston, Orol muammolari kabilarini hal etish uchun birgina O'zbekistonning roli kamlik qiladi. O'zbekiston shu tashkilot orqali ushbu muammolarga kollektiv yondashuvni tashkillashtirishi mumkin.

Qirg'iziston.

- Qirg'iziston XX asrning oxirlariga qadar tinch va osoyishta davlat bo'lib kelgan, ammo keyingi yillarda mamlakatda yuz bergan siyosiy inqirozlar, iqtisodiy tushkunlik hatto tashkilotga a'zo davlatlarni ham tashvishga soluvchi holatdir.

- Qirg'iziston tashkilotga a'zo bo'lishdan juda jiddiy maqsadlarni ko'zlagan deb ayta olish qiyin. Faqatgina Xitoy va Rossiya kabi qudratli homiylarga ega bo'lish orqali o'zining har tomonlama xavfsizligini ta'minlashi mumkin edi.

Tojikiston.

- Tojikiston XX asrning oxirigi o'n yilligida juda og'ir siyosiy va iqtisodiy muammolarni boshidan kechirdi. XXI asrning boshidan siyosiy osudalikka erishgan bo'lsa-da, ammo iqtisodiy muammolar doimo Tojikistonga salbiy ta'sir etib turdi.

- Tojikiston juda boy energetika manbalariga ega bo'lgan holda o'zi ularni tasarruf eta olmaydi, shu bilan birga tashkilot doirasida Rossiya va Xitoy kabi qudratli homiylarga ega bo'lish muhimroq edi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida har bir a'zo davlatning alohida boshqa maqsadlari ham mavjud, shunday ekan ular haqidagi batafsil ma'lumotlarni mavzuning boshqa keyingi boblarini yoritish davomida eslab o'tishimiz va ko'rsatishimiz mumkin.

Bugungi kunda unga a'zo mamlakatlardan tashqari kuzatuvchi va hamkor davlatlar hisobiga tashkilotning hududiy geografiyasi yanada kengayib bormoqda.

Avvalo bir qancha statistik ma'lumotlarni ko'rsatib o'tish lozim. Tashkilot «Shanxay beshligi» deb nomlanib faoliyat ko'rsata boshlagan paytda uning umumiy maydoni 30 mln. km² yaqin va aholisi soni ham 1 mlrd 400 mln.kishidan ortiqroq edi. 2001 yilda unga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi natijasida tashkilotga a'zo davlatlarning umumiy maydoni 30,2 mln. km² ortiq va aholisi soni 1,5 mlrd.ga yaqin kishini tashkil qila boshladi. Keyingi yillarda tashkilotda kuzatuvchi maqomidagi hamkor maqomidagi va mehmon sifatida ishtirok etuvchi davlatlar soni ortib bormoqda.

Tashkilot sammitlarida va umuman faoliyati doirasida kuzatuvchi maqomida bo'lgan Hindiston, Pokiston, Eron va Mo'g'uliston davlatlari ham juda yirik imkoniyatlarga ega. Misol uchun, ular 7,2 mln. km²dan ortiqroq hudud va 1,4 mlrd.dan ortiqroq aholi nufuziga ega. Agarda tashkilotning doimiy hamkorlari va mehmonlari hisoblangan Belorussiya, Shri-Lanka, Afg'oniston va Turkmanistonni ham hisobga olsak, ular 1,4 mln. km² hudud va 60 mln.ga yaqin aholi nufuziga ega. Shu sababli, tashkilot dunyo miqyosida juda yirik tashkilot sifatida tan olinishi bilan birga sezilarli ta'sir kuchiga ham egadir.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar, kuzatuvchi davlatlar, hamkor va mehmon davlatlarni qo'shib hisoblaganda ular jami 38,6 mln. km² hududga va salkam 3 mlrd aholiga egadir. Bu dunyo aholisining yarmiga yaqini degani.

Undan tashqari Xitoy, Rossiya, Hindiston, Eron kabi davlatlar dunyo miqyosida ham iqtisodiy jihatdan yirik davlatlar sirasiga kiradi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo va unga hamkor davlatlar dunyo miqyosida ham ko'plab foydali qazilmalarning juda yirik zahiralari egalik qilmoqda. Misol uchun, neft, gaz, oltin, temir, ko'mir, uran, mis, kumush, qimmatbaho toshlar, simob, surma va bu nomlarni uzoq davom ettirish mumkin.

Shunday ekan, kelajakda ShHTning a'zolari soni ortib borishi va dunyo siyosatidagina emas, balki uning iqtisodiyotida ham juda muhim o'rin egallashi tabiiy hol. Sababi, Xitoy bir necha yil ichida mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmi jihatidan rivojlangan davlatlar Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiyani ham ortda qoldirib AQShdan keyingi o'ringa chiqib olgan. Tahlilchilar Xitoy iqtisodiy o'sishning shu darajasini ushlab qola-olsa 2020 yilga borib, AQShni ham ortda qoldirishi mumkin deb hisoblamogda. Undan tashqari kuzatuvchi maqomida bo'lgan Hindiston ham juda tez taraqqiy etib bormogda va dunyo miqyosidagi iqtisodiy ko'rsatgichi bo'yicha AQSh, Xitoy va Yaponiyadan keyingi o'rinda turmogda xolos. Bu ma'lumotlar esa Shanxay hamkorlik tashkilotining iqtisodiy imkoniyatlari qay darajada kengayib borayotganini ko'rsatib turadi. Qo'shimcha sifatida yana shularni aytish mumkinki,

tashkilotning doimiy a'zolari hisoblangan O'rta Osiyo respublikalari ham iqtisodiy o'sishning yuqori natijalarini qayd qilib bormoqda, hatto bugungi kunda dunyo mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida ham ular iqtisodiy o'sishning yuqori darajasiga erishmoqda. Undan tashqari Qozog'iston va O'zbekiston juda boy mineral zahiralarga ega bo'lib, ular yordamida dunyo iqtisodiyotida sezilarli o'rin egallash mumkin. Shu sababli, mintaqadagi mazkur 2 respublika ham tashkilotning ta'sir kuchiga ega a'zolari hisoblanadi.

ShHT ham boshqa xalqaro tashkilotlar kabi o'zining maqsad va vazifalariga ega, shu bilan birga a'zolari sonini oshirib borish huquqiga ega, faqatgina boshqa mamlakatlar tashkilot maqsadidan kelib chiqib xohish bildirishi lozim.

2001-yil 14-15 iyun kunlarida Shanxay shahrida tashkilotning oltinchi (Shanxay beshligining 6-sammiti, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining rasman 1-sammiti) sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ham ishtirok etib, unda tashkilotga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdi. Natijada, tashkilot Shanxay Hamkorlik Tashkiloti degan nom oldi. Bu tashkilotning dastlabki va hozirgi kunga qadar yagona kengayishi bo'ldi. Dastlab, ShHTga nisbatan dunyo miqyosidagi qiziqish, unga boshqa davlatlarning munosabati va tashkilot bilan hamkorlik qilish yoki kelajakda unga a'zo bo'lishni xohlovchi davlatlar bo'lishi tabiiy hol, shu sabab, avvalo qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

2004-yil 17-iyunda Toshkent shahrida ShHTning rasman 4-sammitda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, Xitoy rahbari Xu Szintao, Rossiya Federasiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Prezidenti Asqar Akayev, Tojikiston Prezidenti Imomali Raxmonovlardan tashqari birinchi marta tashkilot sammitining mehmoni sifatida Afg'oniston muvaqqat ma'muriyati rahbari Hamid Karzay va Battulga Dashjams boshchiligida Mo'g'uliston delegatsiyasi ishtirok etdi.⁴⁷

Shunday qilib, Toshkent sammitida birinchi bor tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar vakillari ishtirok etishdi va kelajakda tashkilot a'zolari sonining ortib

⁴⁷ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 1-бет.

borishi uchun dastlabki yirik qadam, aynan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qo'yildi. Sababi, Afg'oniston va Mo'g'uliston delegatsiyasi yurtboshimiz tomonidan taklif qilingandi.

2005-yil 5-iyulda Qozog'iston Respublikasining poytaxti Ostona shahrida ShHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Unda odatdagidek a'zo davlatlar bilan birga mazkur sammitda Belorussiya Respublikasi va Shri-Lanka delegatsiyalari ishtirok etishib, ular tashkilotga kuzatuvchi maqomini berilishini so'rab murojaat qilishdi. Undan tashqari mintaqadagi yirik va ta'siri kuchli hisoblangan Hindiston, Pokiston va Eron delegatsiyalari ham aynan shu sammitda kuzatuvchi maqomini oldi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining keyingi sammitlarida, xususan, 2006-yil 14-15 iyun kunlari Shanxay shahrida, 2007-yil 16-avgustda Bishkek shahrida, 2008-yil 28-avgustda Dushanbe shahrida, 2009-yil 15-16 iyun kunlari Rossiyaning Yekaterinburg shahrida, 2010-yil 10-11 iyunda Toshkentda va 2011-yil 14-15 iyun kunlari Ostona shahrida ShHTga a'zo davlatlar bilan birga kuzatuvchi va mehmon davlatlar ham ishtirok etdi.⁴⁸

2004-yildagi Toshkent va 2005-yildagi Ostona sammitdaridan boshlab, ShHTning oliy darajadagi sammitlarida doimiy ravishda kuzatuvchi maqomidagi davlatlar, hamkor davlatlar, xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etib kelmoqda.

Ma'lumot sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. 2010-yil 10-11 iyun kunlari ShHTning Toshkent sammitida tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari (faqatgina Qirg'iziston tashqi ishlar vazifasini bajaruvchi Ruslan Kazakbayev) qatnashdi.⁴⁹

Ulardan tashqari kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ishtirok etishadi. Xususan, Mo'g'uliston prezidenti Saxia Geyn Elbegdorj, Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Manuchehr Muttaqiy, Pokiston Islom Respublikasi prezidenti Osif Ali Zardoriy, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar

⁴⁸ Шанхайска Организация сотрудничества// <http://www.seet SCO.org>.

⁴⁹ Халк сўзи. 2010 йил 12-июн. №116 (5031), 2-бет.

vaziri Somonaxalli Malayya Krishna, sammit mehmonlari Afg'oniston Islom Respublikasi prezidenti Hamid Karzay, Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovlardir.

Shuningdek, majlisda ShHT Bosh kotibi Muratbek Imonaliyev, ShHT MATT Ijrochi direktori Jenisbek Jumanbekov, BMT Bosh kotibining o'rinbosari Yan Kubin, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi Sergey Lebedev, ODKB Bosh kotibi Nikolay Bordyuja, YevrAzEs Bosh kotibining o'rinbosari Murat Musatayev, ASEAN Bosh kotibining o'rinbosari Sayakan Sisovonglar ham ishtirok etishdi.⁵⁰

Shunday ekan mazkur sammitda ShHTning ta'sir geografiyasi doimiy ravishda kengayib borayotganligini ko'rsatib berdi.

Ostona shahrida ShHTning navbatdagi sammiti 2011-yil 14-15 iyun kunlari bo'lib, unda a'zo davlatlardan tashqari majlis ishida kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalari rahbarlari - Eron Islom Respublikasi prezidenti Mahmud Axmadinejad, Pokiston Islom Respublikasi prezidenti Osif Ali Zardoriy, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Somonaxalli Malayya Krishna, Mo'g'uliston prezidenti ma'muriyati rahbari Battulga Dashjamslar ham qatnashdi. Qolaversa sammitga va tashkilotga raislik qiluvchi mamlakat mehmoni sifatida taklif etilgan Afg'oniston Respublikasi prezidenti Hamid Karzay, shuningdek, BMT, MDH, ODKB, ASEAN, YevrAzEs va boshqalarning vakillari ham ishtirok etishdi.⁵¹

Umuman olganda, so'nggi yillarda ShHTning xalqaro nufuzi doimiy ravishda ortib bormoqda. Mintaqaning Eron, Mo'g'uliston, Hindiston va Pokiston kabi davlatlarning tashkilotga qiziqishi ortib bormoqda. Bu keyingi yillarda mazkur davlatlarning oliy darajadagi delegatsiyalari muntazam ravishda ShHT sammitlarida qatnashib kelayotgani isbot bo'la oldi.

MDH, ASEAN tashkilotlariga a'zo davlatlar Afg'onistonning ShHT sammitlariga taklif etilishi, Belorussiya va Shri-Lanka davlatlarining muloqot hamkori sifatida e'tirof etilishi tashkilotning kelajak istiqbolidan darak beradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Pokiston Islom Respublikasi va Eron Islom

⁵⁰ Халқ сўзи. 2010 йил 12-июн. №116 (5031), 2-бет.

⁵¹ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 1-бет.

Respublikasi Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo bo'lish uchun rasman murojaat qilgan.

Jahon tajribasi umumbashariy va mintaqaviy muammolarga qarshi kurashishning samarali usuli mustahkam va ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. ShHTning o'z oldiga qo'ygan vazifalari esa barqaror taraqqiyot va farovon istiqbol uchun hamkorlikda kurash olib borishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining butun dunyo mamlakatlarini o'zida birlashtirgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari alohida e'tiborga molikdir. Mazkur tashkilot bilan hamkorlik keyingi yillarda ayniqsa qizg'in tus olmoqda. ShHT va BMT o'rtasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik, ShHTning BMT va boshqa mintaqaviy tashkilotlar o'rtasida oliy darajada bo'lib o'tadigan yig'ilishlardagi ishtirokidan boshlangan edi.

2004-yil fevral oyida ShHTning Ijroiya kotibi (2007-yildan boshlab ShHTning Bosh kotibi sifatida faoliyat olib bormoqda) BMTga rasman murojaat qilgandan keyin, 2004-yilning 2-dekabrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida ShHTga Bosh Assambleya huzurida kuzatuvchi maqomini taqdim etilishi bo'yicha rezolyutsiya qabul qilindi.

Ma'lumki, xalqaro tashkilotlarda kuzatuvchi maqomi, odatda a'zo bo'lmagan davlatlarga yoki tashkilotning organiga a'zo bo'lmagan davlatlarga taqdim qilinadi. Ular asosiy majlislarda ishtirok etish va hujjatlarni olish huquqiga ega bo'lishdi.

2005-yilda BMT Bosh kotibi ShHT Ijroiya kotibiga rasman xat yo'llab, uni 2005-yildagi Butunjahon oliy darajadagi uchrashuv ishida va BMT Bosh Assambleyasining 60-yubiley sessiyasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishga taklif etdi. ShHT Ijroiya kotibi Chjan Deguan 2005 yil 16-sentabrdagi BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida o'z nutqi bilan chiqish qildi.

ShHT va BMT o'rtasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik, mazkur tashkilotlarning tuzilmaviy organlari doirasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik shaklida ham rivojlanib bormoqda. ShHT BMTning ESKATO (BMTning Osiyo va

Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi. 1947-yilda tuzilgan) BMTRD kabi tuzilmalari bilan xalqaro huquqiy hamkorlik olib bormoqda.

2008-yilning yanvar oyida ShHT va ESKATO kotibiyatlari o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning muayyan shakllari va sohalarini ko'zda tutuvchi «O'zaro tushunish to'g'risida»gi memorandum, imzolandi. Mazkur memorandumda, shuningdek, birgalikda faoliyatni amalga oshirishni tahlil qilish maqsadida va aloqalarni yanada faollashtirish yo'llari to'g'risida ekspertlar maslahatlashuvlarini va muhokamalarini hamda o'zaro manfaatlarini aks ettiruvchi axborotlar almashuvi kelishib olingan.⁵²

2010-yil 10-11 iyun kunlari ShHTning Toshkent sammitida ShHTga yangi a'zolari qabul qilish tartiblari to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. Bu Nizom aslida Tashkilotga boshqa istak bildirgan davlatlarni qabul qilish mexanizmini tartibga solish maqsadida ShHTga a'zo mamlakat maqomini olish uchun ariza bergan davlatning majburiyatlari to'g'risidagi namunaviy memorandumni 2011-yil 14-15 iyun kunlari Ostonada bo'lib o'tgan sammit chog'ida imzolandi.

Sammitda O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov ShHTning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladigan quyidagi omillarni alohida ta'kidlab o'tadi.

Birinchidan, ShHT o'zining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlashning ishonchli kafolati sifatida maydonga chiqmoqda, dunyo tez o'zgaruvchan, notinch bo'lib turgan hozirgi zamonda bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, bu ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda ko'p tomonlama samarali hamkorlikni tashkil etish borasida qo'yilayotgan va bajarilayotgan vazifalar, buning uchun zarur shartnomaviy huquqiy asosni shakllantirish va har bir mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirishdir.

⁵² Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 3-бет.

Uchinchidan, ShHT davlatlarning teng huquqli birlashmasi bo'lib, uning faoliyati boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilmagan va qarama-qarshilik qiladigan blok xususiyatiga ega emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.⁵³

Shanxay Hamkorlik tashkiloti vujudga kelishidan boshlab dunyo miqyosidagi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqada bo'lib kela boshladi. Avvalo ShHTning dunyodagi eng katta va ta'siri kuchli bo'lgan BMT bilan munosabati masalasiga to'xtalib o'tish zarur.

2009-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining BMT va ShHT o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi qarorining konsensus asosida qabul qilinishi muhim voqea bo'ldi. Hujjatni ishlab chiqishda ShHTga a'zo davlatlar O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Tojikiston va ulardan tashqari Pokiston va Dominikan Respublikasi ishtirok etishdi.

Mazkur hujjatga BMT va ShHT o'rtasidagi aloqalarni yanada tizimliroq asosda yo'lga qo'yishga yordam beradi. Erishilgan qarorga muvofiq BMT Bosh kotibiga BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar, tashkilotlar, dasturlar va jamg'armalarning ShHT bilan ularning maqsadga erishishlariga yo'naltirilgan dasturlarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan hamkorlik qilish bo'yicha ShHT Bosh kotibiyati bilan muntazam maslahatlashuvlar o'tkazish taklif etiladi. Shu munosabat bilan ushbu tuzilmalarning rahbarlariga BMT Bosh kotibi bilan maslahatlashuvlarni boshlash tavsiya qilindi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2004-yil dekabr oyidayoq BMT Bosh Assambleyasi 59-sessiyasining yalpi majlisida ShHTga Bosh Assambleya huzuridagi kuzatuvchi maqomini berish to'g'risidagi qarori (A/RES/59/48) qabul qilingan.

BMT Bosh kotibi Ch.Deguan boshchiligidagi ShHT delegatsiyasi ilk marta 2005-yilda BMT Bosh Assambleyasining 60-sessiyasida qatnashdi.

2007-yildan buyon ShHTning barcha tadbirlarida BMT Bosh kotibining yuqori martabali vakillari ishtirok etib, Shanxay Hamkorlik tashkilotining nufuzi oshib borayotganiga guvoh bo'lmoqda.⁵⁴

⁵³ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 3-бет.

O'tgan davr mobaynida Shanxay Hamkorlik tashkiloti BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO), BMT Taraqqiyot dasturi va BMTning boshqa tuzilmalari bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi va doimiy ravishda aloqalarni kengaytirib bormoqda. Hozirgi kunda ESKATO va ShHT Osiyo taraqqiyot banki ko'magida ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasidagi xalqaro avtomobil yuk tashish bo'yicha qulay sharoit yaratish bitimi loyihasini tayyorlash jarayonida faol hamkorlik qilmoqda.

2008-yil yanvar oyida ShHTva ESKATO kotibiyatlari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Unda o'zaro manfaatli hamkorlikning aniq shakli va sohalari, jumladan, birgalikdagi faoliyat olib borish, tahlil qilish va o'zaro manfaatli bo'lgan aloqalarning kelgusi yo'nalishlarini muhokama etish maqsadida ekspertlarning maslahatlashuvlarini o'tkazish masalalari ko'zda tutilgan.

BMT va ShHT o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi har ikkala tashkilotning ulkan salohiyatini birgalikdagi faoliyatga jalb etish, hamkorlikning global tarmog'ini kengaytiradi. ShHTga a'zo va kuzatuvchi hamda boshqa manfaatdor davlatlar, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, birinchi galda BMT va uning afg'on muammosini hal etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bilan hamkorlik bu boradagi asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.⁵⁵

ShHTga a'zo davlatlarning qariyb barcha deklaratsiyalarida xalqaro xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashda BMTning muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi va u bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasi o'z aksini topgan.

O'zbekiston terroristik xavf – xatarga xalqaro miqyosda qarshi kurashishni tashkil etishda BMTning markaziy muvofiqshtiruvchilik o'rnini mustahkamlashning qat'iy tarafdori ekanini bir necha bor e'lon qildi. Shuning uchun ham BMT va ShHT hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri xalqaro terrorizmga, radikalizmga, tajovuzkor ekstremizm va separatizmga, narkotrafika hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'lishi lozim.

⁵⁴ Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 1-бет.

⁵⁵ Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 2-бет.

Mazkur yo'nalishlarda ShHTda sa'y-harakatlarni birlashtirish hamda a'zo davlatlar huquqini himoya qilish organlari va maxsus xizmatlari amaliy hamkorligining ta'sirchan vositalari bo'lgan tashkilotning mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) muhim o'rin tutadi.

BMT va ShHT o'rtasidagi sheriklikning ulkan salohiyatga gumanitar sohada amalga oshirish juda katta samara beradi. Tibbiyot sohasidagi hamkorlik ham yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga qarshi kurashishda tajriba almashish va muvofiqlashtirish borasida muhim o'rin tutdi.

BMT va uning tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlarning ShHT bilan hamkorlikni kengaytirish BMTning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatga ega bo'lgan xalqaro muammolarni bartaraf etish bo'yicha har tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish borasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda xizmat qildi.

BMT va ShHT hamkorligi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar taraqqiyot kabi ustuvor yo'nalishlarda hamda o'zaro manfaatli bo'lgan boshqa sohalarda rivojlanishi kerak. BMTning ulkan tajribasi va ShHT salohiyatining samarali tarzda uyg'unligi ushbu tashkilotning institutsional takomillashuviga yangicha turtki beradi. Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, hamda mintaqa davlatlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilish lozim.⁵⁶

ShHT aslida xavfsizlik masalalarini asosiy o'ringa qo'ygan holda tashkil etilgan deyishimiz mumkin. Xalqaro tashkilotlar, ekspertlar, siyosatchilar va siyosiy tahlilchilar ham shunday fikr bildiradi. Xususan, NATO bosh kotibining siyosat va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'rinbosari Gyunter Altenburg shunday deydi «ShHT mintaqaviy hamkorlik asosida barpo etilgan xalqaro tashkilotdir».⁵⁷

NATO va ShHT o'rtasida iliq munosabatlar tashkilot vujudga kelgandan boshlab amalga oshirilmoqda. Mana shu ikki tashkilot «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida sheriklik munosabatlarini o'rnatgan. Aynan tashkilot

⁵⁶ Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 2-бет.

⁵⁷ Халқ сўзи. 2004 йил 24-июн. №132 (3407), 1-бет.

doirasida NATO Rossiya, Xitoy va O'rta Osiyo respublikalari bilan ham aloqalarni yanada samaraliroq usullari borasida fikr yuritilmoqda.

ShHT hamkorlik aloqalarini olib borayotgan yana bir tashkilot ASEAN tashkiloti bo'lib, umuman olganda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ShHT uchun juda muhim ahamiyatga ega.

2004-yilda ShHTning Toshkent sammitida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari bosqichma-bosqich ravishda ko'p tomonlama uyushmalarning sheriklik tarmog'ini tashkil etish ishiga qo'shilish taklifi bilan xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarga murojaat qilgandi. Ko'plab davlatlar va tashkilotlar, shu jumladan ASEAN (Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi) ham ShHT bilan hamkorlik qilish istagini bildiradi. Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, ShHT va ASEAN o'rtasidagi hamkorlikning istiqboli, eng avvalo, ushbu tashkilotlar ko'plab mintaqaviy hamda global muammolar bo'yicha bir xil qarashga hamda nuqtaiy-nazarga ega ekanligi ayon bo'ldi.

2005-yil aprel oyida Jakarta shahrida ShHT va ASEAN kotibiyatlari o'rtasida imzolangan o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum hamkorlik va ko'p tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Memorandumga ko'ra, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi, giyohvandlik, giyohvand moddalar va qurol-yarog'larning noqonuniy savdosi, noqonuniy migratsiya va boshqalarga qarshi kurashish ishlarining istiqbollari belgilab berdi.

Tomonlar iqtisodiy va moliyaviy sohalarda, turizm atrof-muhit hamda tabiiy zahiralardan foydalanish, energetika, ayniqsa gidro energetika va bioyong'ini yo'nalishlarida hamkorlik qilishga kelishib olishdi.⁵⁸

ASEAN va ShHT o'rtasidagi aloqalarning eng muhim sohalaridan biri terrorizmga qarshi kurashishdagi hamkorlik qilish hisoblanadi. Har ikki tashkilot siyosiy, iqtisodiy, ekologik va gumanitar o'lchamlardagi o'zaro o'xshash maqsad va vazifalar bilan birga, xalqaro tashkilotlarning huquqiy maqomi, imzolangan

⁵⁸ Халқ сўзи. 2010 йил 20-март. №55 (4970), 1-бет.

nizomlar hamda asos bo'lib xizmat qiladigan boshqa me'yoriy hujjatlarning mavjudligi kabi jihatlardan ham bir-biriga yaqindir.

ShHT va ASEAN davlatlarini geografik yaqinlik Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi umumiy maqsadlar, uyushmalarning faoliyat makonida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi hamkorlik, manfaatdorlik, iqtisodiyot, transport, madaniyat va turizm kabi sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari bog'lab turadi.

Sarmoyaviy yoki moliyaviy hamkorlikni o'rnatish shu bilan birga global inqiroz ta'sirini bartaraf etish bo'yicha axborot almashishni, hamda ishbilarmon doiralar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish yanada faollashtirish davlatlararo o'zaro munosabatlarning faollashuviga xizmat qildi.

Bugungi kunda ShHT va ASEAN o'rtasidagi hamkorlik kotibiyatlar o'rtasida axborotlar va tajribalar almashish, ekspertlar maslahatlashuvlarini o'tkazish yo'li orqali amalga oshirib borilmoqda. 2008 yil noyabr oyida Xitoyning Pekin shahrida ShHT va ASEAN tashkilotlari bosh kotiblari darajasidagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Shu uchrashuv chog'ida memorandum asosidagi muntazam aloqalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha har ikki tomonning asosiy maqsadlaridan biri ekanligi ta'kidlandi.⁵⁹

Yuqorida ShHTning BMT va ASEAN kabi yirik xalqaro tashkilotlari bilan hamkorligi masalasidagi ma'lumotlar ko'rib o'tildi. Shu o'rinda ShHTning NATO bilan mintaqaviy hamda global siyosat olib borishidagi hamkorligi masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqotchilar sobiq ittifoq parchalangach, O'rta Osiyo respublikalari masalasida qudratli davlatlar o'rtasida kuchli raqobat bo'lishi tabiiy hol edi. Ayniqsa, bu juda muhim energetika manbalari uchun bo'lishi tabiiy hol bo'lib, dunyodagi energetika tanqisligi shunday bo'lishini avvaldan belgilab berardi. Sababi, Rossiya Yevropaga energiya manbalari hisoblangan neft hamda gazni yetkazib berish orqali ularni ma'lum ta'sir doirasida ushlab turishga urindi. O'rta

⁵⁹ Халқ сўзи. 2010 йил 20-март. №55 (4970), 2-бет.

Osiyo gazini boshqa yo'nalishlar orqali Yevropaga yetkazish muammolari ma'lum ma'noda yengillashtiradi deb hisoblardi.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin AQSh boshchiligida NATO va Yevropa mamlakatlari Afg'onistonga harbiy kuchlarni kiritdi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyoga ham g'arb davlatlarining kirib kelishini faollashtirdi.

2006-yil iyunda Shanxayda uchrashgan davlat rahbarlari deklaratsiya imzolashib, u O'rta Osiyo davlatlariga e'tiborni yanada kuchaytirish va bunda Rossiya hamda Xitoy sarmoyasiga alohida e'tibor qaratilishi belgilandi.⁶⁰

2008-yil avgust oyidagi Dushanbe sammiti arafasida bir qator ekspertlar, ShHT asosiy a'zolari sifatida RF va Xitoyning maqsadlari AQSh hamda boshqa g'arb davlatlari manfaatlariga zid keladi deb hisoblaydi. Shu qatorda ShHT va NATO o'rtasidagi munosabatlarga ham oydinlik kiritishga urinishdi.

NATO harbiy-siyosiy tashkilot sifatida o'zining asosiy maqsadi erkinlikni va demokratiyani himoya qilish deb ko'rsatish mumkin. Yevropada yaxshi qo'shniçilik, bir-biriga ishonç, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalaridagi munosabatlarga yordam berish lozim edi. Ammo Sharq mamlakatlari NATO Yevropa davlatlari tomonidan emas, balki AQSh tomonidan boshqariladi deb hisoblashadi. Afg'onistonda o'zining faoliyatini olib borar ekan NATO O'rta Osiyo mamlakatlari va shu qatorda ShHT bilan ham munosabatlarni yaxshilashga, tartibga solishga urinishi tabiiy hol edi. Ammo AQSh va NATOning mintaqadagi faolligi ShHT doirasidagi Xitoy hamda Rossiyani tashvishga solishi tabiiy hol bo'lib, ShHT o'zini harbiy-siyosiy tashkilot sifatida bilmaydi. NATOni ShHT Afg'oniston va Iroq masalasida raqobatchi deb bilmasligini 2007 yildayoq ma'lum qiladi. Hatto 2007-yil 6-avgustda «Tayms» gazetasida ShHT va NATO munosabatlariga oydinlik kirituvchi maqola beriladi. Undan tashqari 2002-yil ShHTning Sankt-Peterburg sammitida qabul qilingan tashkilot Xartiyasining 1-moddasida ShHT terrorizm, separatizm, ekstremizm, qurol-yarog'lar va narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik, transmilliy jinoyatlar va boshqalarga qarshi kurashda har qanday xalqaro tashkilotlar, davlatlar bilan

⁶⁰ Центральная Азия и Кавказ. 2008. №6 (60), С.43-44

hamkorlik qilish va ma'lumot almashinishga qaror qilgandi. ShHT va NATO o'rtasidagi dastlabki munosabatlar Afg'oniston masalasida o'rnatilgan deb aytish mumkin.

2008-yil 18-sentabrda birinchi marta Yevropa ittifoqi va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida xavfsizlik masalasidagi Forumi bo'lib o'tadi. ShHT bosh kotibi B.Nurgaliyev shu forumda ShHT xalqaro va mintaqaviy tashkilot sifatida xavfsizlik masalalarini doimo asosiy o'ringa qo'yishini va Afg'oniston masalasida BMT, YeI, NATO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni davom ettirishini bildirdi.⁶¹

ShHT va NATO hamkorligi qanday natija berishi mumkin. Bu Afg'onistonda tinchlikka erishishda, mintaqaviy muammolarni hal qilishda yaxshi samara berishi mumkin. Yevropa ittifoqi hamda NATO bir xil yo'nalishga asoslanishi mumkin, shunday ekan ShHT tarkibidagi Rossiya va Xitoy ham tashkilotning maqsadidan kelib chiqib o'zlarining siyosiy yo'nalishlarini belgilab olishlari mumkin.⁶²

2005-yil 21-aprelda ShHT va ASEAN tashkilotlari kotibiyatlari darajasidagi uchrashuv bo'lib, unda bir-birini anglash bo'yicha memorandum imzolanadi. Shu tariqa ikkala tashkilot o'rtasida iqtisod, moliya, turizm sog'liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish va boshqa sohalardagi aloqalar yo'lga qo'yiladi. Yaponiya a'zolidagi ASEAN 40 yillik tajribaga ega tashkilot hisoblanadi va ShHT kabi yosh tashkilot uchun bu tajribadan foydalanishi mumkin. Yaponiyaning xalqaro obro'e'tibori ShHTga ko'p tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishda ahamiyati katta. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalar Tokio va ShHTning munosabatlarida asosiy o'rin egallaydi. Mazkur aloqalar iqtisodiy va siyosiy sohalarda ustuvor ahamiyatga ega. Undan tashqari Yaponiya-Xitoy, Yaponiya-Rossiya munosabatlari nafaqat O'rta Osiyo balki boshqa mintaqaviy muammolarning hal etilishida ham muhim asos bo'lishi mumkin.

⁶¹ Центральная Азия и Кавказ. 2008. №6 (60), С.47.

⁶² Литературная газета. 2008 г. 15-21 октябрь. №42. С.2.

Yevropa ittifoqining ham asosiy maqsadi O'rta Osiyoning boy va hali yaxshi o'zlashtirilmagan energetika zahiralardan foydalanishga harakat qiladi. Undan tashqari Osiyoning boshqa mamlakatlariga transport yo'li orqali o'tishda mazkur hudud o'ziga xos koridor vazifasini bajarishi lozim.

Xalqaro aloqalar bo'yicha qirollik instituti tahlilchisi Edmund Xersin O'rta Osiyo respublikalari kelajakda Yevropa uchun juda muhim energetika manbalari yetkazib beruvchi hudud bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.⁶³

2007-yil aprelda Berlin shahrida xalqaro konferensiya bo'lib o'tib, u «Shanxay hamkorlik tashkiloti: Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik imkoniyatlari» mavzusida edi. Konferensiya garchi Germaniya tashqi ishlar siyosati kengashi hamda Germaniya iqtisodiyot bo'limining Sharqiy qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadi. Unda ShHT Bosh kotibi o'rinbosari Bolat Nurgaliyev ishtirok etib, u Yevropa ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Pyer Morel bilan uchrashadi. Undan tashqari, Germaniyaning siyosiy doiralari ishtirok etishadi. Konferensiyada asosiy e'tibor ShHT va YeI o'rtasidagi hamkorlik masalalariga qaratdilar. Konferensiya oxirida Bolat Nurgaliyev Germaniya tashqi ishlar vaziri, shu bilan birga o'sha vaqtda Yevropa Ittifoqidagi vakil hisoblangan Klaus Mangold bilan ShHT hamda YeI o'rtasidagi hamkorlik masalasida suhbatlashadi.⁶⁴

Klaus Mangold faqatgina Germaniya tomonidan emas Yevropa Ittifoqi tomonidan ham ShHT bilan hamkorlik aloqalari juda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tadi. Bunda YeIning birinchi galdagi vazifasi O'rta Osiyo bozoriga kirib borish deb, mazkur hudud doimo YeI qiziqishini uyg'otadi deydi. ShHT bilan aloqalar doirasida ShHTda energetika klubini tashkil qilish g'oyasini taklif qiladi. ShHT va YeI aloqalarining eng muhim va kuchli tomoni birgalikda terrorizm, separatizm, giyohvand moddalar hamda qurol-yarog'larning noqonuniy savdosiga qarshi kurashdagi hamkorlikdir deb uqtirdi.

Zamonaviy dunyoda YeI inson huquqlarini himoya qilish, kishilar yashash sharoitini yaxshilash kabi holatlarga alohida e'tibor bera boshladi. Shu o'rinda

⁶³Шанхайская организация сотрудничества: от становления к всестороннему развитию. М., МГУ, 2008. С.4.

⁶⁴Фроленков В.С. Политика–экономические интересы Центральной Азии главных мировых и региональных факторов. М., Инс. Дальний Восток. 2008. С.64.

ayrim ekspertlar nima uchun O'rta Osiyo xavfsizligi masalasida ShHT faqat YeI bilan hamkorlik qilmoqda deb so'raladi, ammo aslida ShHT bu masalada barcha yirik xalqaro tashkilotlar va hatto mamlakatlar bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

YeI mintaqa mamlakatlarini yagona manfaat yo'lida birlashtirgani holda ShHT ham kelajakda Sharqda shunday tashkilot bo'lishi ehtimoli borligi ta'kidlandi. Undan tashqari, YeI AQShning tashqi siyosat yo'nalishlaridan farq qiluvchi siyosat yuritdi.⁶⁵

⁶⁵ Фроленков В.С. Политика–экономические интересы Центральной Азии главных мировых и региональных факторов. М., Инс. Дальний Восток. 2008. С.78.

II BOB. MINTAQADA XAVFSIZLIK UCHUN KURASHDA VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SHHTNING ISHTIROKI

2.1. ShHTda terrorizmga qarshi kurash markazi – MATT faoliyati

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti vujudga kelishi va shakllanishi dastlab qo'shni davlatlar o'rtasidagi chegara masalasini hal qilishi, chegara hududlarda qurolli kuchlar miqdorini cheklashga qaratilgan harakatlar natijasi bo'ldi. Tashkilotning terrorizm, ekstremizm, qurol-yarog' va narkotiklarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashi uchun amaliy harakatlar boshlanar ekan bunda mintaqaviy aksilterror markazining o'zni alohida ahamiyatga ega.

ShHT doirasida Xitoy va Rossiya kabi yirik va qudratli mamlakatlarning mavjudligi boshqa davlatlarni ham tashkilot bilan hamkorlik qilishga yoki unga a'zo bo'lishga harakat qila boshlaydi. Undan tashqari Qozog'iston va O'zbekiston O'rta Osiyodagina emas, balki dunyo miqyosida ham ma'lum ta'sirga ega mamlakatlar hisoblanadi. Ulardagi boy tabiiy resurslar jahondagi oldingi o'rinlarni egallash imkonini beradi. O'rta Osiyo dunyo miqyosida bugungi kunda juda boy energetika manbalariga ega hudud hisoblanadi. Neft va gaz hamda boshqa qimmatbaho qazilma boyliklari sababli doimo O'rta Osiyo manfaatlar to'qnashadigan makon bo'lib qolmoqda.

Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston diniy ekstremizm, terrorizm va separatizm xavf solib turgan davlatlar hisoblanadi. Tashkilotga a'zo mamlakatlarning barchasida shu kabi muammolar mavjud, shu sababli ularga qarshi kurashishda a'zo davlatlar kuch hamda imkoniyatlarini birlashtirishga kelishib olishdi.

ShHTning geografiyasi doimiy ravishda kengayishda davom etmoqda deb ayta olmaymiz. 2001-yilda 6 ta davlat tomonidan tashkil qilingan tashkilot shu vaqt mobaynida o'z safiga boshqa a'zolarni qabul qilmagan. Faqat Hindiston, Pokiston, Eron va Mo'g'uliston kabi davlatlar kuzatuvchi maqomida ishtirok etmoqda. Ammo ShHTning faoliyat doirasi, imkoniyat darajasi ortib borishi natijasida a'zo davlatlar sonining ortib borishi kuzatilishi mumkin. Bugungi kunda asosan Xitoy va Rossiyaning ulkan imkoniyatlari, hududlari sababli tashkilotning

salohiyati dunyo miqyosida ham juda yuqori deb qaraladi. Sababi 30,2 mln. km² hudud, 1,5 mlrdga yaqin aholiga ega tashkilot dunyo iqtisodi va siyosatida sezilardi ta'sirga ega kuzatuvchi maqomidagi Hindiston, Pokiston va Eron kabi mamlakatlarning tashkilotga a'zo bo'lib qo'shilishi ehtimoli amalga oshgan taqdirda, tashkilotning dunyodagi nufuzi deyarli 2 hissa oshgan bo'lardi.

ShHTning katta siyosiy va iqtisodiy mavqega ega bo'lib borishi natijasida mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi muammolarga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Bugungi kunda Afg'oniston misolida dunyoda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda va ularni bartaraf etish biror-bir davlatning yolg'iz qo'lidan kelmaydi, shu sababli mazkur muammolar dunyo mamlakatlari bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim. Tolibonlar hokimiyat tepasiga chiqishi bilan Afg'oniston terrorizm va giyohvand moddalar manbaiga aylanib qoldi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin AQSh boshchiligida Afg'onistondagi tolibonlar hukumati hamda terrorizm o'choqlarini yo'qotish borasida olib borilgan urush natijasida garchi tolibonlar harakati hokimiyatdan chetlashtirilgan va mazkur harakat juda katta yo'qotishga duchor bo'lgan bo'lsa-da, ammo bari-bir terrorchilik, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi u qadar cheklanmagan. Afg'onistondagi mavjud hukumat ham bu kabi umumjahon muammosini hal qilishni, bartaraf etishni uddasidan chiqqa olmagani sababli, Afg'onistonga qo'shni davlatlar hisoblangan ShHT mamlakatlari muammolarni hal qilish uchun birgalikda harakat qilishga kirishmoqda.

ShHT doirasida eng samarali natija berayotgan hamkorlik sohalari bu iqtisodiy aloqalar hamda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamkorlik hisoblandi.

Mazkur bobda asosiy e'tibor Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy muammolar, ayniqsa, Afg'oniston masalasiga e'tibor bera boshladi. Tolibonlarga qarshi antiterror harakati boshlanib, Afg'onistonda Hamid Karzay boshchiligidagi hukumat shakllantirilgach, mamlakatda «urushdan keyingi holat» hukm surmoqda. Shunday ekan Afg'oniston bilan bog'liq barcha muhim masalalarni hal etishda ShHT muhim amaliy mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2009-yil iyun oyida bo'lgan ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashida «Strategik muhim bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda, xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizmga, shuningdek, narkotrafik va xavfsizlikning boshqa xavf va tahdidlariga qarshi kurashda ShHTning o'rni va ahamiyati kundan-kun ortib bormoqda» degan edi.⁶⁶

Shu sababli ShHT Afg'oniston muammosi hal etilishidan manfaatdor. Ma'lumki, 2005-yil 4-noyabr kuni Pekin shahrida ShHT-Afg'oniston muloqot guruhini tashkil etish borasida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Afg'oniston o'rtasida protokol imzolangan edi. Uning asosiy maqsadi «tomonlar manfaatlariga dahldor masalalarda hamkorlikni amalga oshirishga oid taklif va tavsiyalarini ishlab chiqish»dan iborat.

2001-yil 11-sentabrda AQShda amalga oshirilgan bir qator terrorchilik harakatlari dunyo miqyosida terrorizmga qarshi ommaviy kurash olib borishga harakatlarni kuchaytirib yubordi.

2002-yil 7-mayda Sankt-Peterburg shahrida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining tashkilot doirasidagi keyingi uchrashuvi boshlandi. Aynan shu uchrashuvda tashkilot Xartiyasi qabul qilinadi va yana bir muhim tomoni uchrashuvda tashkilot doirasida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi tashkil qilinadi. Dastlab tashkilot a'zolari mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) shtab kvartirasi Qirg'iziston respublikasi poytaxti Bishkek shahrida joylashuviga qaror qilishdi.

Sankt-Peterburg sammitida aksilterror tuzilmasi shtab-kvartirasi Bishkekda joylashtirishga qaror qilingan bo'lsa, ammo 2004-yilning iyun oyida tashkilotning Toshkent sammiti doirasida mintaqaviy aksilterror tuzilmasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tashkilotning mintaqaviy aksilterror tuzilmasining ochilishi natijasida ShHT mintaqaviy muammolarni bartaraf etishdagi o'zining dastlabki yirik amaliy qadamini tashladi. Garchi asosiy muammo sifatida Afg'oniston masalasi e'tiborga

⁶⁶ Выступление Президент Республики Узбекистан И.А.Каримова на заседании Совета глав государств - членов ШОС// <http://www.mfa.uz>

olinsa-da, ammo barcha a'zo davlatlar uchun qator mintaqaviy va umumjahon miqyosidagi muammolar to'siq bo'lib kelmoqda.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining faoliyati nimadan iborat bo'lishi borasida tuzilma tashkil qilingan paytdagi ijroiya qo'mita direktori Vyacheslav Kosimov quyidagilarni ta'kidlab o'tgandi. Aslida Shanxayda tashkilotning 1-sammitida 2 ta organ kotibiyat va MATTni tuzishga kelishib olgandi. 2003-yildagi Moskva sammitida MATTni Toshkentda ochishga kelishib olinadi. MATT tuzilishiga ko'ra kengash va ijroqo'mdan tashkil topgan. Unga (kengashga) 6 davlat maxsus xizmat rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo'mda ham barcha a'zo davlatlar vakillari qatnashib, MATTga har bir a'zo davlat navbati bilan rahbarlik qiladi.⁶⁷

MATTni tashkil etishdan bir qator maqsad va vazifalar ko'zlangan edi. Avvalo tuzilma terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashishi lozim edi. Tuzilma faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar quyidagilar edi. Birinchi yo'nalish – bu huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish, terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilik faoliyatiga aloqador shaxslarning qidiruvida, giyohvand moddalar savdosi va xalqaro terrorchilikni moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlayotgan boshqa jinoiy unsurlarga qarshi kurashda yordam ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga mas'ul mutaxassislarni tayyorlashdagi ko'mak va shu turkumga kiruvchi boshqa bir qator vazifalar kiradi.

Ikkinchi yo'nalish – axborot va tahliliy faoliyatdan iborat bo'lib, unga binoan hamkasblarning amaliy faoliyati davomida umumiy foydalaniladigan mintaqadagi barcha jarayonlarni chuqur tushunish, ularni amaliy hamda nazariy tahlil qilish, ularga to'g'ri baho berish va aniq bashoratlar qilishga imkon yaratadigan ma'lumotlarning barcha manbalarini barpo qilish.

Uchinchi yo'nalish – xalqaro huquqiy yo'nalishlar MATT faoliyatining uzviy qismiga aylanishi zarur bo'lib, unga oid barcha chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Doimiy muloqotlar, muzokaralar va aloqalar ShHT doirasidagina emas, dunyodagi boshqa yirik xalqaro tashkilotlar va ularning tarkibidagi boshqa

⁶⁷ Халқ сўзи. 2004 йил 10-июнь. №122, 1-2 бетлар.

tuzilmalar bilan xususan, BMT, YeXHT, ASEAN, YeI va boshqa qator tashkilotlar bilan ham aloqalarni olib borish.

MATT tuzilma sifatida dastlabki kunlaridanoq BMTning giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi boshqarmasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ydi.⁶⁸

Tuzilmaning O'zbekiston vakili Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Venada bo'lib o'tgan terrorchilikka qarshi kurash mavzusiga oid seminarida qatnashadi.

Tashkilotga a'zo davlatlar maxsus xizmatlarining hujjat olish, doimiy ravishda zarur axborot almashish tartiblari ishlab chiqilgan bo'lib, ular tuzilmaning yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

Keyingi yillarda xalqaro terrorizmning mamlakatlar, xalqlar va butun dunyoga xavf-xatar tug'dirayotgani hech kimga sir emas. Terrorchilar tomonidan amalga oshirilayotgan xurujlarga javob berishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Tashabbusni qo'lga olish, xalqaro jinoiy guruhlariga qarshi hujumga o'tish, ularning ildizlari va moliyaviy manbalarini yo'q qilish yoki uzib qo'yishning vaqti kelgan. Mana shu holatlar ShHT oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Kelajakda ShHTning MATT faoliyati mazkur vazifalarni bajarishda xizmat qildi.⁶⁹

MATT doirasida a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlarining doimiy uchrashuvi ham amalga oshirib borilmoqda. Xususan, 2003-yil sentabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda ham tomonlar Afg'onistondagi vaziyat, Iroqdagi tiklanish jarayoni, Koreya yarim orolidagi yadroviy muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, Yaqin Sharq mojarosini hal etish uchun qaratilgan «yo'l xaritasi» rejasini hayotga joriy qilish borasidagi fikrlar almashinadi.⁷⁰

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi xavfsizlik masalasini birinchi o'ringa qo'yar ekan, bu boradagi aloqalar amaliy harakatlar bilan birga olib borilmoqda. Dastlab a'zo davlatlar o'rtasida 2007-yilgacha mo'ljallangan hamkorlik dasturi, aniqrog'i «Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning terrorizm,

⁶⁸ Халқ сўзи. 2004 йил 10-июнь. №122, 2-бет.

⁶⁹ Халқ сўзи. 2004 йил 10-июнь. №122, 2-бет.

⁷⁰ Халқ сўзи. 2003 йил 9-сентябр. №186, 1-2 бетлар.

separatizm va ekstremizmga qarshi 2007 yillarga mo'ljallangan Hamkorlik Dasturi» qabul qilinib, unga muvofiq ShHTga a'zo davlatlarning «Sharq – antiterror - 2006» terorizmga qarshi birgalikdagi mashg'ulotlari, terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi simpoziumlar o'tkazishga kelishib olindi.⁷¹

Shu tariqa MATT doirasidagi manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yib olinadi. Aslida barcha a'zo davlatlar ushbu tuzilma faoliyatiga muxtoj hisoblanadi. Keyingi yillarda Qirg'izistonda yuz bergan voqealar barcha davlatlar jamoatchiligini tashvishga solib kelmoqda. Qirg'iziston tashkilotga a'zo davlatlar orasida faqat Rossiya bilan chegaradosh bo'lmay, boshqa 4 ta a'zo davlatlar bilan bevosita chegaradoshlik vaziyatni yanada mushkullashtiradi.

Undan tashqari hamon o'z yechimini topmagan Afg'oniston masalasi ham tashkilotning asosiy muammolaridan, og'riqli nuqtalaridan biri hisoblandi. Al-qoida terroristik tashkiloti Afg'onistonda faollashib borishi natijasida mazkur tashkilotning dunyo mamlakatlarida amalga oshirgan qo'poruvchilik harakatlari soni ortib bordi. Misol uchun 2002-yil Indoneziyaning Bali orolida shu yilning oktabr oyida Moskva shahrida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari bu ofatning chegara bilmasligini ko'rsatardi. Ulardan tashqari boshqa mayda radikal guruhlar tomonidan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari, Kavkaz va Yaqin Sharqda bir qator qo'poruvchilik harakatlari tashkil qilinishi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkil qilish juda o'rinli qaror bo'lganligini ko'rsatdi.⁷²

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zona» g'oyasi dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Shu qatorda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi Rossiya va Xitoy ham bir ovozdan o'zlarining ijobiy qarashlarini bildirdi. Sababi, mintaqadagi Qozog'iston va O'zbekiston dunyo miqyosida ham juda katta uran zahirasiga ega bo'lib, uning barchasi eksport qilinadi. Uranning

⁷¹ Жўраев С., Аҳмедов О., Раҳимова М. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил қилиш. Т., 2008. 275-бет.

⁷² Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерство и диалог// Материалы международной конференции Ташкент, 2003 13-15 мая. Т., 2004. С.33.

katta zahirasiga egalik qilayotgan Qozog'iston va O'zbekiston undan foydalanish imkoniga ham ega bo'lganligini alohida ta'kidlash kerak.

ShHT mamlakatlari ayniqsa O'rta Osiyo respublikalaridagi mintaqaviy muammolar faqatgina ichki siyosat yoki vaziyat natijasida vujudga kelmaydi, aksincha tashqi omillar ham bunda muhim. Sababi O'rta Osiyoda Rossiya va AQSh, Yaponiya va Xitoy, Hindiston va Pokiston, Eron va Turkiya hatto Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya va boshqalarning manfaatlari to'qnashadi. Ayniqsa mintaqada Rossiya, AQSh, Xitoy, Yevropa ittifoqi va Yaponiya o'rtasidagi raqobat qator siyosiy hamda mintaqaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Undan tashqari yirik musulmon davlatlari hisoblangan Pokiston, Eron va Turkiya ham o'z manfaatlarini izlashadi. Ularning diniy va milliy jihatdan yaqinligi vaziyatni ular tomonga hal qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.⁷³

Ayniqsa, O'rta Osiyo Rossiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston kabi yadroviy davlatlar qurshovida bo'lishi vaziyatni yanada chigallashtiradi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi soni tezlik bilan ortib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu sababli bu respublikalar, ayniqsa, O'zbekistonda demografik muammolar yuzaga kelishining sababi, O'rta Osiyo respublikalarida yashayotgan 60 mln.dan ortiq aholining yarmiga yaqini yashaydi, vaholanki, O'zbekiston mintaqa umumiy maydonining 10%iga yaqinini o'z ichiga oladi. Demak, O'zbekiston uchun bu mintaqaviy muammo bo'lishi mumkin. Qirg'iziston uchun siyosiy beqarorlik asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga qashshoqlik, milliy ziddiyatlar ham qo'shimcha ravishda respublika hukumatini tashvishga solib kelmoqda. Tojikiston uchun ham narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, qashshoqlik va boshqa shularga o'xshash muammolar tashvish tug'dirmoqda.⁷⁴

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ham qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan chegara masalalarini muhokama qildi va hal etib bermoqda. O'zbekiston va Qozog'iston chegaralari 2200 km.ni

⁷³ Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерство и диалог// Материалы международной конференции Ташкент, 2003 13-15 мая. Т., 2004. С.36.

⁷⁴ Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерство и диалог// Материалы международной конференции Ташкент, 2003 13-15 мая. Т., 2004. С.37.

tashkil qilib, ular bo'yicha delimitasiya va demarkasiya komissiya tuzilib ish olib boradi, xuddi shunday komissiyalar tuzilib, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi 1300 km chegara hamda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi 1300 km.lik chegaralar masalasini hal etish borasida ish olib bordi. Ular belgilangan muddatlarda majlislar tashkil qilishib, kelishgan holda birgalikda harakat olib borishdi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida 2000-yil 22-sentabrda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Turkmanistonga rasmiy tashrifi paytida «O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegaralarining delimitasiyasi to'g'risidagi shartnoma» imzolandi.

2001-yil fevral oyida O'zbekiston va Qirg'iziston hukumati rahbarlari 2 davlat o'rtasidagi davlat chegaralari delimitasiyasi va ularni boshqarish haqidagi shartnoma imzolanadi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston respublikalari o'rtasidagi davlat chegaralarining ayrim uchastkalari bo'yicha shartnoma 2001 yil 15 iyunda Shanxay sammiti davrida imzolanadi. 2002-yil 9-sentabrda O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari prezidentlari 2 respublika o'rtasidagi davlat chegaralarining alohida uchastkalari bo'yicha delimitasiya jarayoni tugaganligi borasida shartnoma imzolandi.

2002-yil 5-6 oktabr kunlari O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'rtasida chegaralar delimitasiyasi haqida kelishuv imzolandi. Mazkur kelishuvga binoan umumiy chegaralarining 86%i yoki taxminan 1100 km.lik tojik-o'zbek chegaralarining qat'iyligi huquqiy jihatdan belgilab qo'yildi.⁷⁵

Mana shu shartnomalar sababli O'rta Osiyo respublikalari o'rtasidagi mintaqaviy chegara masalalari o'z yechimini topdi. Aslida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti ham aynan chegara va chegara hududlardagi xavfsizlik masalalari bo'yicha «Shanxay beshligi» sifatida vujudga kelgandi. Ammo bugungi kunda ham ShHT doirasida Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi chegara masalasi to'la o'z yechimini topmagan. Bugungi kunda ShHTning asosiy e'tibori a'zo davlatlar

⁷⁵ Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерство и диалог// Материалы международной конференции Ташкент, 2003 13-15 мая. Т., 2004. С.38.

o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash bilan birga, MATTning faoliyati orqali terrorizm, separatizm va boshqalarga qarshi kurash masalasini birinchi o'ringa qo'ymoqda.

2010-yil 2-aprelda Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Kengashining navbatdagi XVI majlisi bo'lib o'tadi. Unda barcha a'zo davlatlar vakillari ishtirok etishib, 2010-yil mart oyida Rossiya Federatsiyasida sodir etilgan va ko'plab insonlarning qurbon bo'lishiga sabab bo'lgan terrorchilik harakatlari keskin qoralandi. Shu sababli terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatlarni yanada kuchaytirishga qaror qilishdi.

Majlisda ShHT MATT Ijroiya qo'mitasi direktori J.Jumanbekov kengash qarorlarining ijro etilishi borasida va a'zo davlatlarning 2007-2009 yillarga mo'ljallangan terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash rejasining amalga oshirilishi borasida axborot berish barobarida boshqa barcha a'zo davlatlar terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashdagi hamkorlikni yanada kuchaytirish va unga oid chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, ShHT MATTning faoliyati ayirmachilik, terrorizm, ekstremizmga qarshi kurashda zamonaviy tahdidlarni qaytara olishi, bartaraf etishi va ularni oldini olishga doimo tayyor darajada tura olishi va shu kabi talablarga javob bera olishi kerakligi ta'kidlandi.⁷⁶

ShHTga a'zo davlatlar vakillari terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashda barcha davlatlarning tegishli organlari vakillari ishtirokida tezkor axborotlar olish va almashish uchun muntazam ravishda majlislar o'tkazib borishga, shuningdek, yirik xalqaro terrorizm tashkilotlaridan birining g'ayriqonuniy faoliyatiga qarshi hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish masalalarini ko'rib chiqadi hamda shu masala bo'yicha guruh tashkil qilishga qaror qildi.

Majlisda a'zo davlatlar terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 2010-2012 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi ishlab chiqiladi. Unga muvofiq 2010-yilda Rossiya Federatsiyasi hududida ShHTga a'zo

⁷⁶ Халқ сўзи. 2010 йил 3 апрел. №65 (4980), 1-бет.

davlatlar tegishli organlarning qo'shma antiterror mashqlarini o'tkazish to'g'risidagi taklif barcha a'zo davlatlar vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.⁷⁷

Kengash ShHT MATT ijroiya qo'mitasi faoliyatini tashkiliy, kadrlar va moliyaviy ta'minlashga hamda ShHTga a'zo davlatlarning terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashdagi hamkorligining huquqiy asosini yanada takomillashtirishga doir masalalar yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilinadi.

Shu sababli, MATTning keyingi majlislari avvaldan kelishib olinishi bilan birga uning samaradorligini oshirish bo'yicha yana ko'plab ishlar amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlab o'tdi.

Aynan mana shu majlis davrida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov MATT ijroiya qo'mitasi direktori J.Jumanbekovni qabul qiladi va unda yurtimiz rahbari mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarini hal etishda xalqaro terrorizm, ayirmachilik, ekstremizm va narkotrafikka, shuningdek, strategik muhim mintaqaga bo'lgan Markaziy Osiyodagi boshqa tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashishda MATTning roli yanada kuchayib borayotganini ta'kidlab o'tdi.⁷⁸

2010-yil 5-aprelda Toshkent shahrida BMT va ShHT kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyasi imzolaniib, unga binoan BMTning tegishli antiterror bo'linmasi bilan ShHT MATT o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Oqsaroy qarorgohida qabul chog'ida prezident I.A.Karimov tashkilotning yanada samarali faoliyat ko'rsatishida O'zbekiston hukumati imkoniyat darajasidagi barcha ishlarni amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi.

ShHT a'zo davlatlari xavfsizlik kengashlari kotiblarining faoliyati ham MATTning yanada samarali faoliyatini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli xavfsizlik kengashi kotiblarining doimiy maslahat va axborot almashuvlari doimiy ravishda yo'lga qo'yilib, ularning yig'ilishi tashkil qilib borilmoqda.

ShHT MATTning davlatlararo munosabatlaridan tashqari xavfsizlik masalalarini barcha sammitlarda kun tartibiga qo'yilishi va tuzilma rahbarlari ham

⁷⁷ Халқ сўзи. 2010 йил 3 апрел. №65 (4980), 1-бет.

⁷⁸ Халқ сўзи. 2010 йил 24 апрел. №80 (4995), 1-бет.

sammitlarda qatnashishi fikrimizni isbotlaydi. Xususan, ShHTning Toshkent sammitida O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlaridan tashqari, kuzatuvchi maqomidagi davlatlar rahbarlari – Mo'g'uliston Prezidenti Saxiagiyn Elbegdorj, Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Manuchehr Muttaqiy, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Somanaxalli Malayya Krishna hamda sammit mehmonlari Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Hamid Karzay, Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedovlar bilan birgalikda ShHT Bosh kotibi Muratbek Imanaliyev, ShHT MATT ijrochi direktori Jenisbek Jumanbekovlar ham ishtirok etishdi.⁷⁹

Terrorizmga qarshi kurash ShHT davlatlarining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini yuqoridagi ma'lumotlar ham ko'rsatib turadi. Bugungi kunda ko'plab siyosatchilar, tadqiqotchilar ShHTning terrorizmga qarshi kurashining faollashuvi hamda mintaqaviy aksilterror tuzilmasining tashkil qilinishi ham 2001-yil 11-sentabrda AQShda amalga oshirilgan terrorchilik amaliyotlaridan keyin boshlandi deb hisoblashadi. Ammo O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston davlatlari undan avval ham bir necha bor terrorizmning jabrini tortishgandi. Shu sababli terrorizmga qarshi kurashdagi tashkilotning a'zolari faqatgina ShHT doirasida emas, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ham Afg'oniston muammosi hamda terrorizmga qarshi kurashda hissa qo'shmoqdalar. Xususan, NATO tomonidan ilgari surilgan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida Rossiya, Hindiston, Eron, Tojikiston, O'zbekiston va Afg'onistonning «Shimoliy alyans»i terrorizm va Afg'oniston muammosi bo'yicha xalqaro muzokaralarda ishtirok etishgan.⁸⁰

Aslida 2001-yil 20-oktabrda Xitoyning Shanxay shahrida RF Prezidenti Vladimir Putin va XXR rahbari Szyan Szeminlar uchrashib, unda terrorizmga qarshi birgalikda kurash bo'yicha ishchi guruh tuzishga kelishib olishgandi. Shu sababli 2001-yil 28-29-noyabr kunlari Pekinda bo'lib o'tgan uchrashuvda

⁷⁹ Халк сўзи. 2010 йил 12 июн. №116 (5031), 2-бет.

⁸⁰ Центральная Азия и Кавказ. 2003. №3 (27), С.56

terrorizmning global xavfiga qarshi birgalikda kurash olib borish, Afg'onistondagi voqealarga muhim xalqaro va mintaqaviy masala sifatida qarashga kelishib olishadi. Vaziyatning bu darajada o'zgarib borishi natijasida ShHT doirasida keng miqyosli ishlar boshlab yuborildi.

Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ShHTning asosiy tuzilmalaridan biri sifatida bugun ishonchli faoliyat olib bormoqda. 2010-yil 11-iyunda Toshkentda bo'lgan ShHT sammitida prezident I.A.Karimov Afg'oniston muammosi, mintaqaviy muammolar masalasida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi. «Afg'oniston muammosi ShHTning deyarli barcha majlislarida muhokama etib kelinayotgan muhim masalalardan biri bo'lib, bugun ham mazkur mavzu diqqat e'tiborimizda turibdi.

30 yildan buyon urush davom etayotgan Afg'onistondagi muammolarni hal qilmay turib, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik haqida gapirish mumkin emas....

Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Biz bu masalani NATO\SEAPning 2008-yil aprel oyida Buxarest shahrida bo'lgan sammitida va boshqa xalqaro forumlarda ko'targan bo'lsak, bugun afg'on muammosini yechishga doir barcha mamlakatlar rahbarlari shu haqda gapirmoqda.

Afg'oniston muammolarini hal etishda va u yerda barqarorlikni ta'minlashda birinchi navbatda, jafokash afg'on xalqiga maqsadli iqtisodiy yordam ko'rsatishga, mamlakatning transport – kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmasini barpo etish va shakllantirishga, aholi bandligini ta'minlashga, qashshoqlikka qarshi kurashish bilan bog'liq o'tkir muammolarni yechishga ustivor masala sifatida qarash lozim.

Afg'onistonning tarixiy, etnik va demografik xususiyatlarini, ushbu mamlakatning ko'p millatli va ko'p konfessiyali xalqi amal qiladigan qadimiy urf-odatlarini, islom dinining an'anaviy qadriyatlarini inobatga olish va hurmat qilish zarur.

Murosa jarayoniga Afg'oniston aholisi va istisnosiz barcha qarama-qarshi kuchlar, etnik va diniy guruhlar jalb qilinmasa, ular o'rtasida konsensusga erishilmasa, Afg'onistonda urush hali uzoq davom etishi mumkin.

Bu jarayonda uch yetakchi subyekt Rossiya, AQSh va NATOning faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Qo'shni mamlakatlarga, Afg'onistonga bevosita qo'shni, chegaradosh bo'lgan mamlakatlarga tayanish, bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, bu vazifalarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchiligi va boshchiligida amalga oshirilishi zarur.»⁸¹

ShHT MATTning asosiy muammosi faqatgina Afg'oniston masalasi bo'lib qolmasdan, Qirg'izistonda ro'y berayotgan voqealar, ulardan tashqari xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, etnik mojarolar, narkotik moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi, odam savdosi kabi juda zararli holatlarga, yangi asrda insoniyat uchun asosiy muammo bo'lishi mumkin deb hisoblangan holatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish ham diqqat markazda bo'lib qolmoqda.

⁸¹ Халқ сўзи. 2010 йил 14 июн. №117 (5032), 1-бет.

II.2. Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashda ShHTning ishtiroki

2001-yil yozida tashkil topgan ShHT u qadar uzoq vaqt o'tmasdan 11-sentabr kuni AQShda amalga oshirilgan terrorchilik aktlari sababli dunyoni tashvishga solib turgan asosiy xavflardan biri terrorchilikka qarshi kurashishga harakat qila boshladi va bu yo'lda amaliy ishlarni ham boshlab yubordi. Dunyoning eng qudratli davlati deb hisoblanuvchi AQShda amalga oshirilgan mazkur terrorchilik amaliyoti dunyodagi barcha mamlakatlar qatori ShHT davlatlarini ham xushyor torttirdi.

2002-yilning 7-iyun kunda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida ShHTning navbatdagi sammiti yoki tashkilotning rasman 2-sammiti bo'lib o'tdi. Mazkur sammit AQShda amalga oshirilgan terrorchilik amaliyotidan keyin ilk bor tashkilotga a'zo davlat rahbarlarining kengaytirilgan uchrashuvi edi.

Tashkilotga a'zo mamlakatlar AQShda amalga oshirilgan terrorchilik amaliyotini boshqa davlatning muammosi emas, balki umumjahon muammosi ekanligini tan olishdi.

ShHTga a'zo davlatlar mintaqadagi va dunyodagi qator hududiy muammolarga hamda ularning yechimiga e'tibor qaratishadi. Bugungi kunda ShHT mamlakatlari oldida turgan asosiy muammolar sirasiga Afg'oniston, Qirg'iziston masalalari hisoblandi.⁸²

Qirg'iziston tomoni dastlab antiterror markazini tashkil qilish fikrini ilgari suradi. Afg'onistondan doimiy xavfning kuchliligi sababli O'zbekiston va Tojikiston hukumatlari rahbarlari ham mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashdi. Rossiya ShHT doirasida terrorchilikka qarshi kurashish g'oyasini rag'batlantiradi. Undan tashqari 11-sentabr voqealaridan keyin ShHTga a'zo davlatlari ham AQSh bilan aksilterror amaliyotida hamkorlik qila boshlaydi. Shunday ekan, AQShning Afg'onistondagi tolibonlar rejimi va terrorchilik markazlarini yo'qotish amaliyotida ShHT davlatlari ham AQSh hukumatini har tomonlama qo'llab-quvvatladi.⁸³

⁸² Центральная Азия и Кавказ. №3, 2003. С.56.

⁸³ Центральная Азия и Кавказ. №3, 2003. С.57.

O'rta Osiyo davlatlarida shu sababli bir qator muammolar yuzaga kelib qoldi.

Birinchidan, 11-sentabr voqealariga qadar O'rta Osiyoda ShHT yaqqol ustun mavqega ega edi. Terrorizm va tolibonlarga qarshi kurashish bahonasida AQSh mintaqada yanada kuchli ta'sirga ega bo'lib bordi. Mamlakatlar tomonidan terrorchilikka qarshi kurashish amaliyotining boshlanishi mintaqa mamlakatlarini AQSh, Rossiya va Xitoy o'rtasida qoldirib, murakkab vaziyatni vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, ShHT mamlakatlari orasida ma'lum ma'noda bo'linish yuz bera boshladi. Terrorchilikka qarshi kurashishda AQSh atrofida birlashgan bo'lsa-da, ammo tashkilot doirasida bari-bir jiddiy amaliyot bajarilmadi.

Uchinchidan, ShHT davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada zaiflashdi. Vashington O'rta Osiyo respublikalariga katta e'tibor bera boshlashi bilan katta miqdordagi kapitalini kirita boshlashdi, ularning ketidan boshqa g'arb mamlakatlari ham O'rta Osiyo respublikalariga investitsiya kirita boshladi. Natijada ShHT davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar zaiflashdi.

To'rtinchidan, ko'rib o'tilayotgan davrda ShHT davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar ham o'zgardi. Markaziy yoki O'rta Osiyo juda ulkan geografik hudud bo'lib, bu yerda 4 ta sivilizatsiya: konfutsiylik, islom, hinduizm va slavyan madaniyatlari mavjud. Sivilizatsiyalar bu qadar aloqasini boshqa biror-bir hududda bu yerdagi kabi keng miqyosda kuzatish mushkul. Sobiq SSSR davrida deyarli 70 yil davomida diniy ilm va ma'lumotlar doimiy ravishda cheklanib, davlat miqyosida qarshi chiqib kelishdi. Ittifoqning parchalanishi natijasida O'rta Osiyo respublikalariga turli diniy konsessiyalar kirib kela boshladi va bunda turli yo'llardan hamda usullardan foydalanildi. Undan tashqari, g'arb davlatlari Yevropaga yoki Amerikacha turmush tarzini mazkur davlatlarga kiritishga harakat qila boshladi. AQSh O'rta Osiyo respublikalarida g'arb sivilizatsiyani eng ko'p darajada tarqatayotgan davlat bo'lib qoldi. Natijada mintaqa mamlakatlari ma'lum ma'noda Rossiya va Xitoydan uzoqlashib, ShHTning taqdiri bu vaziyatda xavf ostida qolib ketdi.⁸⁴

⁸⁴ Центральная Азия и Кавказ. №3, 2003. С.58.

2001-yil 20-oktabrda Xitoyning Shanxay shahrida Rossiya prezidenti Vladimir Putin va XXR rahbari Szyan Szeminlar uchrashib, kelajakda ShHTning taqdiri masalasini muhokama qilishdi. Unda ShHT o'zining terrorizmga qarshi pozitsiyasini mustahkamlashi lozimligini ta'kidlab, birgalikda xalqaro terrorizm Rossiya uchun jiddiy muammo bo'lgan chechen jangarilari hamda Xitoy uchun og'riqli nuqta bo'lib turgan «Sharqiy Turkiston» harakatining faoliyatini ko'rib chiqishdi.

Xitoy tomoni tashkilot doirasidan tashqari terrorizm bilan kurashish maqsadida Rossiya, AQSh, Hindiston, Pokiston, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya bilan doimiy aloqalarni yo'lga qo'ygandi. Hududiy muammolar masalasiga Xitoy tashabbusi bilan yanada ko'proq e'tibor berila boshlandi.

Afg'onistonda tolibonlar hokimiyatga kelishi natijasida butunlay boshqa tartiblar o'rnatila boshlandi. Natijada Osiyoning qoq markazida ulkan terrorchilik va narkotik moddalar yetishtirishuvchi davlat joylashib qoldi. U butun dunyoga ayniqsa qo'shni mamlakatlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishiga va real xavfning ortib borishiga olib keldi. 1996-yilda Tolibonlar hokimiyatga kelgach, «Al-qoida» va uning rahbari Usama Ben Laden ham shu yerdan qo'nim topdi. Natijada ShHT mamlakatlari uchun Afg'onistondagi muammolar bilan birga Tojikiston va O'zbekistondagi diniy ekstremistlar bilan Checheniston, Sin-Szyan yoki «Sharqiy Turkiston» guruhlarini bilan kurash olib borishga majbur bo'lishdi.⁸⁵

Tolibonlar hukumati «Sharqiy Turkiston» guruhi, Checheniston jangarilari va O'rta Osiyo respublikalaridagi diniy oqimlarni, umuman davlatga qarshi kuchlarni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. O'rta Osiyodagi geosiyosiy vaziyatning bu qadar o'zgarib ketishi natijasida ShHT qator chora-tadbirlar va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan rejalar ishlab chiqa boshladi. Dunyodagi neft va gazga boy bo'lgan O'rta Osiyo hududi dunyodagi qudratli mamlakatlarning diqqat e'tiborini tortib keladi. Arabiston dengiziga qadar Afg'oniston va Pokiston orqali o'tishi lozim bo'lgan magistral quvurlar qurish rejasi amalga oshirib bo'lmas xayol bo'lib qola boshladi. Eronning yadroviy dasturi sababli uning G'arb davlatlari va

⁸⁵ Центральная Азия и Кавказ. №3, 2003. С.59.

qisman Yaponiya bilan munosabatlari doimiy ravishda yomonlashib bordi. Eronning dunyodagi eng yirik neft ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri ekanligi, yoki Eron nazorati ostida bo'lgan hududlar orqali dunyo mamlakatlariga eksport qilinayotgan neftning 40-45%ining o'tishini inobatga olsak va mana shu neftning katta qismi aynan Xitoyga borishi tashkilot doirasida Xitoyni kuchli tashvishga soluvchi holatdir.

Hududiy va mintaqaviy muammolarni hal etishda ShHT ayniqsa Sankt-Peterburg sammitidan keyin juda faollashib ketdi, deyish mumkin. 2002-yil 7-iyunda bo'lib o'tgan sammitda qator muhim hujjatlar imzolandi, natijada xalqaro va hududiy muammolarni hal etishga tashkilot boshqa xalqaro tashkilotlar va yirik davlatlar bilan birga kirishadi yoki hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishdi.

Sammitda ayniqsa ShHT ustavining qabul qilinishi juda muhim voqea sifatida talqin qilinadi. Dastlab terrorizmga qarshi kurash olib borish markazi Bishkekda joylashtirilishi nazarda tutildi, hatto Xitoy tomoni uni qo'llab-quvvatladi, 2002-yil 10-11 oktabr kunlari Xitoy va Qirg'iziston birgalikda terrorchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgan qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazishdi. ShHT doirasida antiterror markazining tashkil qilina boshlashi bilan AQSh, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Eron va boshqa mamlakatlar hamkorlik qilish taklifini bildirishdi. Ammo ShHT va AQShning terrorizmga qarshi kurashdagi hamkorligi dunyo mamlakatlari tomonidan doimiy ravishda xavotirga solib keldi.⁸⁶

Toshkentda mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) tashkil qilishga kelishganidan keyin 2003-yil noyabr oyida unga nisbatan texnik ko'rik o'tkaziladi. Tashkilot 2004-yil yanvar oyida to'la qonli faoliyat ko'rsata boshladi. MATT tarkibi kengash va ijroqo'mdan tashkil topgan, unga a'zo davlatlar navbatmanavbat tashkilotga rahbarlik qiladi. MATT doimiy ravishda ShHT bilan emas, balki boshqa tashkilotlar xususan, BMT, YeXHT, ASEAN, YeI singari boshqa yirik va ta'siri kuchli xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qila boshladi.⁸⁷

⁸⁶ Центральная Азия и Кавказ. №3, 2003. С.60.

⁸⁷ Халқ сўзи. 2004 йил 10 июн. №122, 1-2 бетлар.

2004-yil iyun oyida ShHTning Toshkent sammiti bo'lib o'tdi, undagi eng asosiy masala Toshkent Deklaratsiyasining imzolanishi bo'ldi. 2004-yil 17-iyun kunda imzolangan deklarasiyada ShHTning keyingi amalga oshirilishi lozim bo'lgan rejalari yana bir bor tasdiqlanadi. Xalqaro miqyosda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor ShHT davlatlarining mintaqaviy muammolarga, ayniqsa Tinch okeani va Osiyo mintaqasidagi muammolarga birinchi o'rinda e'tibor qaratildi.

Davlatlar rahbarlari mazkur takliflarning amalga oshirilishi barcha ishtirokchilarning teng darajada manfaatlarini hisobga olgan holda, amaldagi BMT nizomi va xalqaro huquq doirasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikning kooperativ tizimini shakllantirishga ko'maklashgan bo'lar edi, deb hisoblaydilar.⁸⁸

Shu o'rinda yana bir jihatni alohida ta'kidlash kerakki, 2009-yil Yekaterinburg (Rossiya) sammitidan keyin ShHTga raislik O'zbekistonga o'tdi. Qoidaga binoan tashkilotga raislik qiluvchi davlat o'z hududida tashkilotning navbatdagi sammitini tashkillashtirishi kerak bo'lardi. 2010-yil iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tgan ShHT sammitida O'zbekistonning tashkilotga raisligi davridagi amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi.

Har qanday tashkilotning nufuzi uning ahamiyati dunyo miqyosida tan olinishi, xalqaro masalalarni hal etishga bog'liq bo'ldi. 2005-2006 yillarda ShHTning Banklararo birlashmasi, Ishbilarmonlararo kengashi va Forumi tashkil qilindi. Sammitda bugungi kunda biror-bir muammoni hech bir davlat yakka o'zi mustaqil hal qila olmadi. Ayniqsa, xavfsizlik, ekologiya kabi muammolar barcha davlatlar uchun bir xil ahamiyatga egadir.

ShHT o'zaro anglashuv memarandumiga, asosan, ESKATO, ASEAN, MDH, YevrAzEs, ODKB kabi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikni doimiy ravishda mustahkamlab bordi.⁸⁹

⁸⁸ Халқ сўзи. 2004 йил 22 июн. №130, 1-3 бетлар.

⁸⁹ Халқ сўзи. 2010 йил 12 июн. №116, 1-2 бетлар.

ShHTning xartiyasi qabul qilinib, unda tashkilotning asosiy maqsadi, vazifalari, strategik yo'nalishi masalasi kabi muhim jihatlar ta'kidlandi.

Hatto tashkilot xartiyasining 1-moddasida ham quyidagilar tilga olinadi. «ShHTning asosiy vazifasi va maqsadlari quyidagilar: a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni rivojlantirish, ko'p tarmoqli hamkorlikni yo'lga qo'yish va tinchlikni ta'minlashda hamkorlik qilish. Yangi demokratik tartiblar, dunyodagi siyosiy va iqtisodiy tartiblarga moslashish, birgalikda terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, qurol-yarog' hamda narkotik moddalarning noqonuniy savdosining oldini olish, transmilliy jinoyatlarning barcha ko'rinishlarini, noqonuniy migratsiyaning oldini olish va uni bartaraf etishga kelishishi. Hududiy muammolarni bartaraf etishni, siyosiy munosabatlarni hal qilishning yanada samarali yo'llarini izlab topish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquqiy himoya, madaniy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim, energetika, transport, kredit-moliya va boshqa sohalaridagi aloqalarni ko'p tomonlama hamda samarali ravishda bartaraf etishda hamkorlik qilish va bunda imkoniyatlar, davlatlarning mavqeyiga qaramasdan teng huquqli asosda olib borildi.»⁹⁰

Afg'oniston masalasi ShHT eng ko'p darajada e'tibor qaratadigan muammo hisoblanadi. Sababi, bu davlat tashkilotga a'zo bo'lgan 3 ta davlat bilan bevosita chegaraga ega, undan tashqari tashkilotda kuzatuvchi maqomida bo'lgan davlatlarning markazida joylashgan.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan vujudga kelgan 6+2, aniqroq qilib aytsak Afg'onistonga chegaradosh 6 ta davlat va AQSh hamda Rossiya o'rtasidagi Afg'oniston muammosiga bag'ishlangan dastur, keyinroq bu reja 6+3 tizimiga aylantirila boshlaydi.

ShHTning mazkur xavfsizlikka asoslangan rejalari bir muncha uzoqroq hududlarni ham qamrab oladi. Geografik jihatdan uzoqda joylashgan Afrika va

⁹⁰ Шанхайская организация сотрудничества: от становления к всестороннему развитию. М., МГУ, 2008. С.4-5.

boshqa hududlardagi muammolar tashkilotning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.⁹¹

Davlatlararo munosabatlar ShHT doirasida boshqa hududiy mintaqalarning muammolarini muhokama qilishga qaratmoqda. Markaziy Osiyoning strategik jihatdan g'oyat muhim ahamiyatga egaligi qator murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

AQSh yoki G'arbiy Yevropaning davlatlar ittifoqi O'rta Osiyo va Kaspiy bo'yida asosan neft hamda gaz resurslariga e'tibor qaratgan. Tashkilotga a'zo davlatlar hisoblangan Rossiya va Xitoy ham shu kabi maqsadlardan yiroq emasdi.

Rossiya va Xitoy tomoni mintaqadagi mamlakatlarni, xususan, Afg'onistonni ham qo'shib hisoblab yagona Markaziy Osiyo deb hisoblaydi. Faqatgina Afg'oniston hududda stabil bo'lmagan, u qadar katta foyda keltirmaydigan davlat sifatida qaraladi. Xitoy Markaziy Osiyoning boy neft hamda gaz resurslariga e'tibor qaratadi. AQSh, Yevropa ittifoqi, Rossiya va Xitoy O'rta Osiyoga turlicha yondashuvga ega bo'lib, faqatgina Yevropa ittifoqi hamda Xitoy tinch sharoitda mintaqadagi boy resurslardan foydalanish va imkon qadar dunyo bozoridagi narxlarga nisbatan o'zlariga qulay bo'lgan narxlarga kelishishga urinishadi. Rossiya tomoni Markaziy Osiyo respublikalarini faqatgina o'zi bilan hamkorlik qilishini ma'qul ko'radi. Hatto 2006-yilgi ShHT sammitida Rossiya prezidenti V.V.Putin O'rta Osiyo bo'yicha raqobatchilariga qarata shu hududdagi resurslarni o'zlashtirishda yetarli darajadagi tajriba mavjudligi, shu sababli mintaqa xavfsizligini kuchli raqobat sabab buzish kerak emasligini uqtirib o'tdi.⁹²

Ayrim tadqiqotchilar «Shanxay beshligi» o'zining dastlabki davrdagi taraqqiyot yo'lidan borsa, harbiy tashkilotga aylanishi yoki harbiylashgan tashkilot sifatida rivojlanishi mumkin edi deb hisoblaydi. Sabab sifatida mazkur beshlik aslida xavfsizlik yuzasidan kelib chiqqan deb uqtirdi. 2005-yil ShHT Markaziy Osiyodagi Amerika bazalari masalasiga e'tibor qarata boshlaydi. Undan tashqari shu yili avgust oyida katta miqdorda harbiy aviatsiya ishtirokida Rossiya-Xitoy

⁹¹ Шанхайская организация сотрудничества: от становления к всестороннему развитию. М., МГУ, 2008. С.8-9.

⁹² Дубнов А., Соловьев И. Пообещал Сделает//<http://www.globalaffairs.ru>

qo'shma harbiy mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Garchi bu mashg'ulotlar ekstremizm va terrorizmga qarshi deb baholansa-da, ammo AQSh bu mashg'ulotlarning asl maqsadini boshqacha talqin qildi.⁹³

G'arbiy Yevropa siyosatchilari dastlabki paytda ShHTga «Sharqiy NATO» sifatida baho berishadi. Zamonaviy Rossiya va Xitoy shu orqali Markaziy Osiyo, Tinch okeani havzasi kabi juda muhim hududlarda o'zlarining ta'sirini oshirishni maqsad qilgan deb uqtirishdi.

Mintaqaviy xavfsizlik masalasi natijasida O'rta Osiyo respublikalari ShHTga a'zo sifatida qabul qilina boshlaydi yoki o'zlari shu tashkilotga intilishadi.

Dunyo miqyosida Fors ko'rfazi, Yaqin Sharq hududlari neftning juda boy hududlari deb qaralsa-da, ammo O'rta Osiyo, Kaspiy bo'ylari, Shimoliy dengiz, Meksika qo'ltig'i kabi qator hududlar yaxshi o'zlashtirilmagan, ammo neft va gazning juda boy zahiralari mavjud deb qaraladi. Aynan shu zahiralarning mintaqaviy muammolarni umumshaxsiy miqyosdagi muammolarga aylantirishi mumkin.

2007-yil 10-oktabrda tashkilot bosh kotibi ishtirokchi davlatlarni noqonuniy giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashdagi hamkorlikni faollashtirishga chaqirdi. O'sha davrdan boshlab bir necha marta antiterror mashg'ulotlari o'tkaziladi.⁹⁴

⁹³ <http://www.expert.ru>

⁹⁴ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 2-бет.

II.3. Markaziy Osiyodagi asosiy xavfsizlik muammolari

Shanxay hamkorlik tashkiloti asosiy e'tiborni dastlabki paytlarda mintaqaviy muammolar xalqaro terrorizm va boshqa muammolarni birgalikda hal etishni maqsad qiladi. Bunga yetarli darajadagi asoslar mavjud edi. Agarda tashkilotga a'zo davlatlarning har biri bilan alohida muammolar haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqsakkina aniq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

Xitoy qudratli iqtisodga va harbiy salohiyatga ega davlat hisoblansada, ammo bir qator muammolar, aniqsa milliy muammolar, etnik ziddiyatlar mamlakat oldidagi asosiy yechimini kutayotgan masaladir. Shinjon uyg'ur muxtor viloyati, Tayvan va Tibet masalasida Xitoy hukumati juda ehtiyotkorlik bilan siyosat olib bordi. Shunday ekan separatizm, millatchilik masalalarini oldini olishga va uni bartaraf etishga xalqaro muammo sifatida qaraldi.

Rossiya ulkan hududga yoyilgani bilan birga bu yerda ichki subyektlar juda ko'p sonli bo'lib, mamlakat uchun asosiy muammo Checheniston va Shimoliy Kavkaz masalasi bo'lib kelgan edi. Ko'plab millat vakillarini Rossiya fuqarosi ekanligi ayrim xalqlarning qisman yoki butunlay mustaqillikka intilishi, diniy nizolarning mavjudligi va mamlakatning bir necha bor terrorchilik harakatlari natijasida katta iqtisodiy zarar ko'rishi, ko'plab odamlarning bevaqt o'limi mazkur muammolarga jiddiy e'tibor berishga undaydi. Shu sababli Rossiya hukumati tashkilotning mazkur loyihalarini amalga oshirishda faol qatnashish tarafdori hisoblendi.

Qirg'iziston va Tojikiston birin-ketin terrorizm, separatizm hamda millatchilikning kuchli ta'sirida fuqarolar urush yoki kelishmovchiliklarni boshidan kechirdi. Tojikistonda mustaqillik yillaridan yangi asrga qadar 10 yillikdan ortiq siyosiy beqarorlik saqlanib qolindi. Qirg'iziston keyingi yillarda bir necha bor amalga oshirilgan davlat to'ntarishlaridan keyin siyosiy jihatdan beqaror davlatga aylandi. Shu sababli mazkur davlatlardagi vaziyat tashkilot doirasida va yordamida o'zlaridagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashning eng asosiy vositasi deb tushunmoqdalar.

O'zbekiston ham terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik mollar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosidan katta zarar ko'rgan va doimiy ravishda shu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish, ularga qarshi kurashish hamda oldini olishga eng ko'p darajada harakat qilayotgan davlat hisoblandi. Shu sababli tashkilotning aksilterror markazi ham Toshkent shahriga joylashtiriladi. O'zbekistonga Rossiya va Xitoy kabi dunyodagi yirik iqtisodiy hamda siyosiy gegemon davlatlar bilan hamkorlik qilish, ularning ulkan bozoriga mahsulot yetkazib berish juda foydali hisoblandi.

Garchi Qozog'iston terrorizm, separatizm va boshqa salbiy illatlar birmuncha kam tahdid qilib turgan davlat hisoblansa-da, ammo bu kabi muammolardan to'la xolos bo'la olmagan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, dunyodagi biror-bir davlat terrorizm, narkobiznes va shu kabi salbiy illatlar xurujidan xolos bo'la olmagan. Qozog'iston ham shunday mamlakatlar sirasiga kirdi.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz kabi Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning har biri ko'plab muammolarga ega, shu bilan birga qo'shni davlatlardagi mavjud vaziyat ham salbiy holat hisoblanadi. Xalqaro tashkilot sifatida boshqa xalqaro muammolarga ham aralasha boshlaydi. Bu tabiiy hol edi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uning siyosiy-jug'rofiy o'rni, itisodiy va ma'naviy imkoniyatlari jahon hamjamiyatini istiqbolga yangicha munosabatlar bilan qarashga, dunyo ahlini o'ziga ham, olamga ham teranroq nazar tashlashga majbur etmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «biz yashayotgan dunyo torgina emas, juda murakkab ekanligini idrok qilmasdan turib bu muammolarni hal qilish ancha qiyin». Bu bilan u endi biz yashayotgan olam xuddi hozirgacha o'ylaganimiz singari jo'n, oddiy emasligini, buncha keng va rang-barang, nihoyatda murakkab va ziddiyatli dunyo haqida shunchaki fikr yuritib bo'lmasligini anglashga, har bir davlat arbobining kundalik tashvishi butun olam va odamlar tashvishi bilan bog'liqligini unutmaslikka chaqirmoqda.

O'zbekiston rahbarining fikricha dunyo taraqqiyoti, olamning bus-butunligi, barcha xalqlarning tinchligi va xavfsizligi eng avvalo, mintaqaviy barqarorlikni vujudga keltirish va bir-birini bevosita to'g'ri anglashga bog'liq. Darhaqiqat, birinchi galda ma'naviy-ruhiy jihatlari, turmush tarzi va urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar o'zaro totuvlikni ta'minlasalargina, ular yashayotgan mintaqalarda xavfsizlik barqarorlik bo'lishiga, shu asosda mintaqalararo va qit'alararo yakdillik vujudga kelishiga imkon yaratiladi. Ana shunday hayotiy haqiqatga tayangan O'zbekiston Prezidenti urush va tinchlik muammolariga, milliy ravnaq va Yer yuzi xavfsizligiga kengroq qarash, endi yaqin o'tmishimizdagidan farqli holda har qanday mafkuradan holi, inson qalbiga yaqin bo'lgan tushunchalarni ilgari surib, «bir-birimizdan qochmaslikni tushunishga majbur ekanligimizni» alohida uqtirib o'tdi. Ana shu majburlik hissi, majburiyat yuki har qanday davlat arbobining o'z mamlakati manfaatidan tortib mintaqaviy, qolaversa dunyoviy masalalarga ham jiddiyroq qarashni, bu masalalar oldida javobgar ekanligini g'oyat kuyinchaklik va mas'uliyat bilan ta'kidlaydi.

Prezident I.A.Karimov Markaziy Osiyo muammolari haqida gapirar ekan, «Dunyo qariyb yuz yil davomida unutib qo'ygan jug'rofiy siyosiy makon bugungi kunda o'zining yangi sifatini ko'rsatmoqda va bu siyosiy sharoitda kutilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini jalb etayotgan Markaziy Osiyo ularning tashqi siyosat yo'li strategiyasini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi unsur bo'lib qolmoqda».⁹⁵

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelgan barqarorlik va xavfsizlik muammolari alohida va yakka davlat doirasida hal qilib bo'lmaydigan darajaga kelib qoldi. Keyingi vaqtlarda global darajaga kirib ulgurgan quyidagi muammolarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin:

- ***Afg'oniston muammosi.*** Shubhasiz mintaqaviy barqarorlikka eng katta xavf bo'lib turgan, 2001-yil sentabr voqealaridan keyin global darajadagi xavfsizlik muammosi sifatida qaralayotgan muammodir. Mana 30 yildirki bu

⁹⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб, Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ», 2000. 250-251 бетлар.

muammoga hamon yechim topilgani yo'q. Bizningcha, afg'on muammosi nafaqat mintaqaviy balkim xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarning asosiy manbaidir. Ushbu muammoga yechim topmasdan turib, mintaqada barqarorlikka erishish, tinch-osuda hayotni qurish haqida gap-so'z bo'lishi mumkin emas.

ShHTga a'zo davlatlarning ikkitasi bevosita Afg'oniston bilan chegaradosh ekanligini inobatga olsak, mazkur tashkilot doirasida bu muammoni hal etish eng ustuvor masala sifatida bekorga qaralmayotganligini anglash mumkin.

2001-yil sentabr voqealaridan keyin Afg'onistonga BMTning tinchlikni saqlash kuchlari kiritilganligi ham muammoga yechim topmadi. Undan tashqari qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Afg'oniston masalasi deyarli ShHTning sammiti kun tartibida muhokama qilinadi, uning ishlarida Afg'onistonning o'tish davri hukumati vakillari ishtirok etib keladi. Bizningcha, bu muammoning eng ma'qul yechimi Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, o'sha xalqning bevosita o'zi bilan bog'liqdir.⁹⁶

- Zamonaviy xalqaro terror, diniy ekstremizm, ayirmachilik va narkobiznes kabi xatarlar mintaqa barqarorligiga tahdid soluvchi muammolardan biridir. 2001-yil 15-iyundagi ShHTning 1-sammitda «Shanxay Konvensiyasi» qabul qilindi. Ushbu konvensiyaning 1-moddasida terrorizm, separatizm va ekstremizm tushunchalariga batafsil izoh berildi. Unga ko'ra terrorizm quyidagicha izohlanadi:

a) mazkur konvensiya asosida qabul qilinadigan shartnomalarning biriga qaratilgan jinoyat deb tan olingan har qanday xatti-harakat;

b) harbiy mojoro paytidagi harbiy harakatlarda faol ishtirok etmagan qandaydir fuqaro yoki boshqa har qanday shaxsni o'limini keltirib chiqarishga yo'naltirilgan har qanday boshqa faoliyat yoki unga og'ir jismoniy shikast yetkazsa, keyinchalik esa qandaydir moddiy obyektga sezilarli zarba bersa, aynan tashkilotlardek bunday faoliyatni rejalashtirish, uni sodir etishga sheriklik qilish va bunday faoliyat kontekst xarakteri bog'langan aholini qo'rqitish, jamoaviy xavfsizlikni buzishga doir, qandaydir xalqaro tashkilotlarning hokimiyat organlarini qandaydir harakatlarni sodir etishga majburlasa yoki uni sodir etishdan

⁹⁶ Ўзбекистон овози.2012 йил 16-июнь. №74 (31.506) 1-2 бетлар.

tiylsa, tomonlarning milliy qonunchiligi bilan muvofiqlikda jinoiy tartibda taqib qilinadi.

«Separatizm» - davlatning hududiy yaxlitligini buzishga yo'naltirilgan, shu jumladan uni hududlarni bo'lishga yo'naltirilgan yoki zo'rovonlik yo'li bilan sodir etilgan davlatni tarkibiy qismlarga ajratishga yo'naltirilgan qandaydir faoliyat, bunday faoliyatni aniq rejalashtirish va tayyorlash, uni sodir etishda sheriklik qilish tomonlarning milliy qonunchiligi bilan muvofiqlikda jinoiy tartibda ta'qib qilinsin.

Ekstremizm – hokimiyatni zo'rovonlarcha egallashga yoki hokimiyatni zo'rovonlarcha ushlab qolishga, so'ngra davlatning konstitutsion tizimini zo'rovonlarcha o'zgartirishga yo'naltirilgan qandaydir faoliyat bo'lsa, aynan esa jamoaviy xavfsizlikni zo'rovonlarcha tajovuz qilish, shu qatorda yuqori ko'rsatilgan maqsadlarda noqonuniy shakllantirilgan tashkilot tomonlarning milliy qonunchiligi bilan muvofiqligida jinoiy tartibda ta'qib qilinadi.

Mana shu ko'rsatib o'tilgan xatarlar o'z maqsadiga erishish uchun har qanday noqonuniy usul va vositalardan foydalanishmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: «Ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorga qarshi yalpi kurash olib borilmas ekan, maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, yakka-yolg'iz, tarqoq holda va noizchil usullar bilan kurash olib borish istiqbolsiz ekani tobora ravshanlashmoqda».⁹⁷

Ma'lum ma'noda ekstremizm, terrorism, narkobiznesning asosiy manbalaridan biri yana Afg'onistonga borib taqaladi. Ya'ni birinchi muammo ikkinchi muammoni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda xalqaro terrorismning asosiy markazlaridan biri Afg'oniston bo'lib qolayapti. Afg'oniston-Pokiston chegaralari hududlarida yaxshigina tayyorgarlikdan o'tgan terrorchilar mintaqa davlatlarning xavfsizligi bilan birgalikda dunyo jamoatchiligini tinchligiga ham rahna solmoqda. Ko'rsatilgan bu muammolarni ham xarqaro darajaga ko'tarilib ulgurilgan xavfsizlikka va barqarorlikka qaratilgan tahdid muammolari sifatida qarash mumkin.

⁹⁷ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Асарлар тўплами 9-жилд. Т., «Ўзбекистон», 2001. 380-бет.

- XX asr ikkinchi yarmidan dunyo miqyosida boshlanib ketgan qurollanish poygasi keyingi vaqtlarda ommaviy qirg'in quollariga egalik qilish harakatini kuchaytirib yubordi. Mintaqaning qator davlatlari, jumladan, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Rossiya kabi davlatlarda bunday qurollarning mavjudligini, Eron, Shimoliy Koreya kabi davlatlar ana shunday qurollarga ega bo'lishga intilayotganligini aslo e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Shu ma'noda Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi zona yaratish g'oyasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tomoni mazkur muammoni hal etishda ShHTning a'zolari bo'lmish Rossiya va XXRning BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolidan umid kutmoqda.

- Markaziy Osiyo mintaqasi ulkan hajmdagi tabiiy va mineral xom-ashyo zahiralari manbalariga boydir. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish ko'pincha energiya tizimiga bo'lgan ehtiyojga bog'liq bo'lib qolmoqda. Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmanistonning ana shunday energiya zahiralari boyligi ularni doimo kuchli davlatlarning raqobat maydoniga aylantiradi. O'z maqsadlariga erishish uchun, ya'ni o'zlariga qulay bo'lgan energiya zahiralari «norasmiy» egasiga aylanishlari uchun bunday tashqi kuchlar ko'pincha «demokratiya bayrog'i» ostida o'ziga xos muxolifatni shakllantirmoqda. Xalq inqiloblari yo'li bilan davlatlarda mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga urinmoqdalar. Masalan, Qirg'iziston ham ana shunday tashqi kuchlarning qurboniga aylanishiga oz qoldi. Shunday ekan, mazkur muammo doimo mintaqadagi davlatlarni sergaklikda yashashini taqozo etadi. Ma'lum darajada Rossiya va Xitoy singari dunyoning katta sakkizligiga kiruvchi davlatlar bilan ShHT doirasidagi hamkorlik mavjud vaziyatni barqaror saqlashga yordam berishi mumkin.

XULOSA

Rasman tashkilot sifatida tashkil topgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga ham bugun o'n yildan ortiq vaqt o'tdi. Ana shu o'n yillik faoliyatini hamda uning mintaqada xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirgan ishlarni tadqiqotda tahlil qilib quyidagi asosiy xulosalarga kelish va tashkilot oldida turgan o'ta muhim yechimini topishi kerak bo'lgan vazifalarni ko'rsatish mumkin.

- Davlat chegaralari masalasida vujudga kelgan «Shanxay beshligi» mintaqaviy (keyingi vaqtlarda qator siyosatshunoslar mazkur tashkilotning maqomiga nisbatan subregional atamasini qo'llamoqda) tashkilot ko'rinishiga aylandi. Xalqaro tashkilot maqomi huquqining talabi sifatida mazkur tashkilot ham o'zining nizomini ishlab chiqdi.

- ShHT birinchi navbatda tashkilot kelishuv emas. Shuning uchun ham uning aniq belgilab olingan faoliyat mexanizmi bo'lishi kerak. Ana shunday mexanizm tashkilot rasman tashkil topgan birinchi uchrashuvda ishlab chiqildi va shu asosda tashkilot doirasida a'zo davlatlarning hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Ammo mazkur mexanizmni takomillashtirish bugungi kunda tashkilot oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

2012-yil Shanxayda bo'lib o'tgan navbatdagi sammitda yana bir bor tashkilot faoliyatini yanada mustahkamlash uchun bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muhimi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashkilotning nufuzini oshirish uchun tashkilot qoshida taraqqiyot jamg'armasi va taraqqiyot bankini tashkil etishni tavsiya etdi. Albatta bu ham ShHT oldida turgan yechimi topilmagan masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, garchi a'zo davlatlar o'zaro ShHT doirasida hamkorlikni amalga oshirishni maqsad qilgan bo'lsa ham ko'pincha bu hamkorlik ikki tomonlama juda borsa uch tomonlama munosabatlar qobig'ida qolib ketmoqda.

- ShHT oldida turgan eng asosiy muammolardan yana biri bu Tashkilotning budjet muammosidir. Balkim, bu muammo Tashkilotning mintaqada xavfsizlikni to'laqonli ta'minlashiga to'sqinlik qilayotgan bo'lishi ham mumkin. Chunki, ShHTning budjeti yiliga 3,5 mln. dollarni tashkil etgani holda MATTning bu

mablag'i 1,3 mln. dollarga teng. Shuning uchun ham narkobiznes va shu kabi illatlarga qarshi kurashish uchun yetarli mablag'ga ega emaslar. Bizningcha narkobiznes va unga yaqin bo'lgan boshqa illatlarga qarshi kurashish uchun ShHT ham keyingi vaqtlarda ko'pgina ekspertlar ilgari surayotgan «targ'ibot siyosati»dan foydalanish kerak. Unga ko'ra aholi orasida giyohvandlikka qarshi qaratilgan tashviqotlarni avj oldirish, narkomaniyani davolash va profilaktikasida erishilgan natijalar bo'yicha tajribalar almashish kabilarni amalga oshirish mumkin.

- Tashkilot doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi masalasi ko'pincha a'zo davlatlarning ichki tartib-qoidalaridagi tafovutlar sababli oxirigacha amalga oshirilmay qolmoqda. Bizningcha ana shu jihatni ham tashkilot rahbariyati qaytadan o'ylab ko'rishi kerak.

- ShHT ga a'zo davlatlar o'rtasidagi chegaralarning ochiqligi, davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda bir-biriga o'zaro bog'liqligi ular o'rtasidagi hamkorlikning ijobiy natijasini berish mumkin. Ammo hamon bu borada uzil-kesil hamkorlik dasturi ishlab chiqilgan emas.

- Tashkilotga a'zo bo'lib kirgan davlatlar uning ishida kuzatuvchilik maqomida ishtirok etib kelayotgan davlatlarning birinchi navbatda tashkilotga o'zlarining milliy manfaatlari nuqtai nazaridan a'zo bo'lib kirganligi ham tashkilotning ishiga ko'pincha halaqit berib qolmoqda. Ba'zi mutaxassislar ShHT doirasida amalga oshirilayotgan tashabbuslar ko'pincha mintaqada AQSh ta'sirini kuchsizlantirishga qaratilmoqda deb hisoblaydilar. Shuning uchun bo'lsa kerak Rossiya va Xitoy mazkur tashkilotda ishtirok etishdan ayniqsa manfaatdordirlar. A'zo davlatlar ShHTni ko'p qutbli dunyo talablariga javob beradigan yangi ko'rinishdagi zamonaviy tashkilot bo'lishi uchun harakat qilishlari kerak.

- Xavfsizlikni ta'minlash borasidagi Tashkilotning ayrim tashabbuslarini ijobiy baholasa bo'ladi. Xususan, bugungi kungacha «Rossiya, Xitoy va O'rta Osiyo – terrordan holi zona» prinsipini hayotga tadbiiq etish borasida rejali va samarali ishlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida tashkiliy ishlardan amaliy faoliyatga o'tildi, terrorizmga qarshi kurashning samarali mexanizmlari shakllandi. Birgina ShHTning MATT tuzilmasi doirasida olti mamlakatning maxsus

xizmatlari muvofiqlashtirildi, davlat tashkilotlarining terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashishdagi axborot almashinuvi yaxshilandi. Garchi mintaqada hamon terrorizm xavfi saqlanib qolmoqda. Shunday bo'lsa ham bir narsani ta'kidlash kerakki, MATT boshqa tashkilotlar singari rasmiy qog'ozdagi tashkilot bo'lib qolmadi. Balkim, uni tuzishdan maqsad qilingan funksiyalarni bajarmoqda.

- MATT doirasida terrorizmga qarshi kurashning yangi usullarini ishlab chiqish va a'zo davlatlarning mudofaa tashkilotlari bilan axborot – ma'lumot almashinuvini jadallashtirish lozimdir.

- ShHT tomonidan qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida ijro etilmay qolayotganini yuqorida aytgan edik, qolaversa, xavfsizlik va barqarorlikka qarshi qaratilgan xatti-harakatlarga qarshi kurashda ShHT doirasida ayrim muammolar ham uchrab turibdi. Lekin masalaning boshqa tomoni borki, u ham bo'lsa ana shu muammolarni hal etuvchi yoki u bilan shug'ullanuvchi tashkilotning idorasi yo'q. Bizningcha, ShHT faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi muammolar bilan shug'ullanuvchi tashkiliy idoralarini shakllantirilishi kerak.

- Tashkilot oldida turgan yana bir muammo ishtirokchi davlatlarning notengligidir. Ko'pincha ekspertlar garchi sezilmayotgan bo'lsada, Tashkilotga yetakchilik borasida Xitoy va Rossiya o'rtasida zimdan kurash ketayotganligini ta'kidlashmoqda.

Bugungi kunga kelib ShHT o'z tarixi davomidagi burulish pallasida turibdi deb hisoblash mumkin. Xalqaro munosabatlar va tashkilotlar faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar kelajakdagi ShHT istiqbolini quyidagi yo'nalishda baholamoqda.

Avvalo, ShHT doirasida iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi kelgusida ShHT mintaqasida erkin savdo hududi shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Doimiy ravishda nufuzli xalqaro tashkilot darajasiga yetishish uchun harakat qilib kelayotgan ShHT ana shu harakatlarning samarasi sifatida kelgusida o'z mintaqasi muammolarini mustaqil hal eta oladigan kuchli siyosiy va harbiy imkoniyatlarga ega bo'lgan tashkilotga aylanishi mumkin.

ShHTdan ko'zlangan maqsadlar katta. Bizningcha, mazkur tashkilotning kelgusidagi istiqboli haqida fikr yuritganda yurtboshimiz I.A.Karimovning bu borada bildirgan quyidagi mulohazalari eng munosib javob bo'ladi: «Birinchidan, boshqa barcha hayotiy masalalarning negizini belgilab beradigan mintaqamizda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va mustahkamlash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, separatizm, narkotrafik kabi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurash masalasi bundan buyon ham ShHTning o'ta muhim va ustuvor vazifasi bo'lib qolishi lozim.

Bu maqsadga erishish uchun, avvalambor, mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning mavjud xavf-xatarlarni yagona prinsiplar asosida, bir ko'z bilan qarashi va baholashi talab etiladi.

Ikkinchidan, mana shunday tahdidlarning oldini olishda mintaqamizga, millionlab odamlarning hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yovuz kuchlarning faoliyatini nafaqat to'g'ri baholash, balki ularga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib birgalikda kurashish, tashkilotga a'zo bo'lgan hech bir davlatda qo'poruvchilik harakatlariga yo'l qo'ymaslik, barcha kuch va imkoniyatlarni shu maqsadda birlashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda....

Uchinchidan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni yechishda mazkur tashkilot va unga a'zo bo'lgan davlatlar orasida o'zaro hurmat va ishonch muhiti mavjud bo'lgandagina qabul qilinadigan qarorlarning samarasi va ta'sirini amalda sezish mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimizning «Birlashgan – o'zar, birlashmagan - to'zar», degan maqolida chuqur ma'no bor, deb o'ylayman, dedi davlatimiz rahbari.

To'rtinchidan, ma'lumki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o'z safida hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati jihatidan turlicha mavqyega ega bo'lgan davlatlarni birlashtiradi. Albatta, ushbu davlatlarning barchasi ham bu tashkilot doirasida o'z milliy manfaatlarini ko'zlangan holda siyosat olib borishga intiladi. Mana shunday nozik vaziyatda o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash uchun avvalo nima kerak,

degan savolga, men xalqaro diplomatiya tilida keng qo'llanadigan manfaatlar balansi, ta'bir joiz bo'lsa, manfaatlar muvozanati, degan mezonni doimo saqlash, unga rioya qilish va bu masalani e'tibor markazida tutish kerak, deb javob bergan bo'lardim.»⁹⁸

⁹⁸ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. Том 14. Т., 251-254 бетлар.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., «Ўзбекистон», 2008.
2. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Том 9. Т., 2001.
3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Том 10. Т., 2002.
4. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Том 11. Т., 2003.
5. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Том 12. Т., 2004.
6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Том 13. Т., 2005.
7. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинлари – олий қадрият. Том 14. Т., 2006.
8. Каримов И.А. Жамятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезон ива мақсадидир. Том 15. Т., 2007.
9. Каримов И.А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Том 18. Т., 2010.
10. Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т., «Шарқ», 2005. – 464.
11. Саидмуродов А. Эффективный механизм экономического сотрудничества. Республика экономическая газета «Биржа» 2007. 20-сентябрь.
12. Волович А.А. Китай на энергетическом рынке Ближнего Востока // <http://www.iimes.ru>
13. Выступление Президент Республики Узбекистан И.А.Каримова на заседании Совета глав государств-членов ШОС// <http://www.mfa.uz>
14. Декларация о создании ШОС//<http://www.SCO.ru>

15. Бжезинский З.К. Великая шахматная доска. М., 1998.
16. История развития ШОС//<http://www.SCO>
17. История становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. Отв ред. Р.М.Абдуллаев, Д.А.Алимова. – Тошкент, 2011. С. 170
18. Каримова Г.И. Политико-экономические реформы в Узбекистане: реалии и перспективы. Т., «Узбекистан», 1995.
19. Кушкумбаев С. Развитие ШОС как региональной организации: потенциал расширения. 3 июля, 2007// <http://www.hisi.kz>.
20. Мустакил Ўзбекистон тарихи. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Т.3. Т., 2009.
21. Официальный сайт ШОС//<http://www.sectSCO.org>
22. Региональное экономическое сотрудничество ШОС// <http://www.rg.ru>
23. Совместное Заявление участников Алма-атинской встречи – Республики Казахстан, КНР, Кыргызской Республики, РФ и Республики Таджикистан// <http://www.impravo.ru>
24. Соглашение между РФ Республикой Казахстан, Кыргызской республикой, республикой Таджикистан и КНР о взаимной сокращении вооруженных сил в районе границы. С.4.//<http://www.impravo.ru>.
25. Фроленков В.С. Политика–экономические интересы Центральной Азии главных мировых и региональных факторов. М., Инс. Дальний Восток. 2008.
26. Ходжаев А.Х. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т., «Фан», 2004.
27. Хартия ШОС.// <http://www.SCO.ru>
28. Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерства и диалог. Материалы международной конференции (13-15 мая 2003. Ташкент) Т., «Шарк», 2004.
29. Центральная Азия в XXI веке: Сотрудничество, партнерство и диалог// Материалы международной конференции Ташкент, 2003 13-15 мая. Т., 2004.
30. Центральная Азия геоэкономика, безопасность. Ред.кол. Т., 2002.

- 31.Цыганов П.А. Международные отношения. – М., Новая школа. 1996.
- 32.Шанхайская организация сотрудничества: от становления к всестороннему развитию. М., МГУ, 2008.
- 33.Шарапова С.Ш. Многосторонность и внешняя политика Республики Узбекистан. Т., 2007.
- 34.Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил қилиш. Жўраев С., Аҳмедов О., Раҳимова М. Т., 2008.

Avtoreferatlar

- 35.Маннонова О.С. Политологическое изучение проблем регионально развития безопасности и интеграции в Центральной Азии в зарубежной русскоязычной литературе//Диссертация на соиск.науч.степени канд.полит.наук. Ташкент, 2001.
- 36.Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010.
- 37.Парманов В.В. Геостратегия США в Центральной Азии: Автореф. дис... канд.полит.наук. Т., 2002.
- 38.Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустақкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007.

Gazeta va jurnallar

- 39.Xalq so'zi. 2003 yil 9-sentabr. №186
- 40.Xalq so'zi. 2004 yil 10 iyun. №122, 16-iyun. №126 (3401), 22 iyun. №130, 24-iyun. №132 (3407)
- 41.Xalq so'zi. 2010 yil 10-mart. №47 (4962), 20-mart. №55 (4970), 3 aprel. №65 (4980), 24-aprel. №80 (4995), 5-iyun. №111 (5026), 12 iyun. №116, 14-iyun. №117 (5032)
- 42.O'zbekiston ovozi. 2011 yil, 18-iyun. №73 (31.349)

43. Birja. 2007 yil. 20-sentabr.

44. Jamiyat va boshqaruv. №2, 2004.

45. Литературная газета. 2008 г. 15-21 октябрь. №42.

46. Центральная Азия и Кавказ. 2003. №3 (27); 2008. №5 (59), №6 (60)

Internet saytlari

55. www.edu.uz

56. <http://www.mfa.uz>

57. <http://www.impravo.ru>

58. <http://www.sectSCO.org>